

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

**MATBAA
TEXNOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA ZAMONAVIY
YUTUQLARI**

A.A.DJALILOV,
D.R.SAFAYEVA

TOSHKENT 2025



**Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va
o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchilar: TTYSI “Kimyo va matbaa muhandisligi” kafedrasi mudiri,
PhD, A.A.Djalilov

TTYSI “Kimyo va matbaa muhandisligi” kafedrasi dotsenti,
PhD, D.R.Safayeva

Taqrizchi: TTYSI “Kimyo va matbaa muhandisligi” kafedrasi professori,
t.f.d. X.A.Babaxanova
TTYSI “Kimyo va matbaa muhandisligi” kafedrasi professori,
t.f.d. I.A.Nabiyeva

**O‘quv uslubiy majmua Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
uslubiy Kengashining 202__ yil “___” _____dagi __-son qarori bilan
nashrga tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

I.	ISHCHI O'QUV DASTURI.....	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	15
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	90
V.	GLOSSARIY.....	123
VI	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	134

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida

shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, matbaa texnologiyalarining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari hamda printmediya texnologiyalari va komplekslari bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

“Matbaa va qadoqlash muhandisligi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Matbaa va qadoqlash muhandisligi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

“Matbaa texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- matbaa mahsulotlarini loyihalash usullarini;
- matnli axborotni qayta ishlash texnologiyasini;

- rasmi li axborotlarni qayta ishlash texnologiyasini;
- bosma qolip tayyorlash texnologiyasini;
- rastrli tasvirlar xususiyatlarini;
- rastrli va vektorli grafik dasturlari bilan ishlashni;
- matbaa ishlab chiqarish korxonalarida turli assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologik jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari;
- jahon sektorida matbaa mahsulotlari bozorini;
- matbaa mahsulotlarining istiqbolli turlarini;
- sifat nazoratini;
- korxonalarni boshqaruvi tizimini va dolzarb muammolarini;
- matbaa sohasidagi zamonaviy ilmiy markazlar faoliyatini;
- ishlab chiqarishdagi zamonaviy texnika va innovatsion jihozlarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- bosishgacha bo‘lgan bo‘limlar loyihamalarini ishlab chiqish;
- chop etish bo‘limlari loyihamalarini ishlab chiqish va zamonaviy yutuqlarni qo‘llash;
- postpress bo‘limlari loyihamalarini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslash;
- matbaa korxonalari loyihamalarini ishlab chiqish;
- turli bosma usullari uchun bosma qoliplarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;
- ishlab chiqarish jarayonida sifan nazoratini tashkil qilish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- matbaa va qadoqlash mahsulotlari dizaynini ijod qilish;
- matbaa dizaynida zamonaviy tendensiyalar va boshqalar fikrini aniqlash;
- matbaa va qadoqlash mahsulotlarini loyihalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;
- “aqlii” qadoqlash mahsulotlarini tahlil qilish va qo‘llash;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish turlarini o‘zlashtirish;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashgan loyihalashda intellektual tizimlarini qo‘llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini tuzish;
- mahsulotlar maketlarini yaratishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish;
- mahalliy ishlab chiqarilgan materiallar xususiyatlarining bosma mahsulotini ishlab chiqarish texnologik jarayoniga ta’sirini tahlil qilish;
- resurstejamkor texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish;
- matbaa sohasida xalqaro ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajribasidan foydalanish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Matbaa texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентасион va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlар, test so‘rovlари, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Matbaa texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning matbaa va qadoqlash sohalari bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar matbaa-noshirlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

	Modul mavzulari	Jami	Nazariy	Amaliy	Ko‘chma mashg‘ ulot
1.	Qolip ishlab chiqarishda nusxa ko‘chirish jarayonlarining fizik-kimiyoviv asoslari. Rastrli tasvirni gradatsion uzatish. Reproduksion-grafik xossalarga ta’sir qiluvchi omillar.	4	2	2	-
2.	Qolip plastinalarni asosiy turlari va tuzilishi. Qolip plastinalarga qoyiladigan talablar. Tekis, ofset va chuqur bosma usulida qolip tayyorlash uchun jihozlar.	4	2	2	-
3.	Qolip tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar. Fleksografik bosma qolip tayyorlashda raqamli texnologiyalar.	6	2	2	2
4.	Chuqur bosma qolip tayyorlashdagj raqamli texnologiyalar. Bosma qolipni nazorati uchun texnik vositalar. Trafaret bosma qoliplari.	4	2	2	-
5.	Raqamli svetoproba uskunalari. Densitometrik va spektrofotometrik nazorat.	4	-	2	2
6.	O‘zbekiston sharoitida matbaa materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqarishning dolzarb muammolari. Smart-qadoqlar. Matbaa sanoatining rivojlanish istiqbollari.	6	2	2	2
	JAMI	28	10	12	6

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Qolip ishlab chiqarishda nusxa ko‘chirish jarayonlarining fizik-kimiyoviv asoslari. Rastrli tasvirni gradatsion uzatish. Reproduksion-grafik xossalarga ta’sir qiluvchi omillar

Turli bosma usullari qoliplarini tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari. Qolip plastinalarda nusxa ko‘chirish qatlamlarining xususiyatlari tahlili. Qatlamlarning tasvirlarning grafik uzatilishiga ta’siri. Qatlam xususiyatlarining qoliplarning adadga chidamliligiga ta’siri tadqiqotlari. Turli bosma usullarida nusxalarning bosma-texnik xossalariiga ta’sir qiluvchi faktorlar.

2-Mavzu: Qolip plastinalarni asosiy turlari va tuzilishi. Qolip plastinalarga qoyiladigan talablar. Tekis, offset va chuqur bosma usulida qolip tayyorlash uchun jihozlar

Offset plastinalarining tuzilishi va xususiyatlari. Plastina qatlamlariga qo‘yiladigan talablar. Bosma qoliplariga qo‘yiladigan talablar. Chuqur bosma qoliplarini tayyorlashning innovatsion texnologiyalari. Yuqori bosma qoliplarining qo‘llanilishi va tayyorlanishi. Turli bosma usullari uchun «Kompyuter – bosma qolip» texnologiyalari. Bosma qoliplarini tayyorlashda sifat nazorati.

3-Mavzu: Qolip tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar. Fleksografik bosma qolip tayyorlashda raqamli texnologiyalar.

Offset bosma qoliplarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar. Fleksografik bosma qoliplarini tayyorlash usullari. Flekografik qolip plastinalari, xususiyatlari. Fleksografik qolip plastinalariga ishlov berish. Plastinalarga tasvir yozishda qo‘llanadigan lazerlar. Qolip plastinalarini ochiltirish usullari va qurilmalari.

4-Mavzu: Chuqur bosma qolip tayyorlashdagj raqamli texnologiyalar. Bosma qolipni nazorati uchun texnik vositalar. Trafaret bosma qoliplari.

Chuqur bosma qoliplarini lazerli yozish texnologiyalari. Chuqur bosma qoliplari uchun «Kompyuter – bosma qolip» texnologiyalari». Bosma qoliplari sifatini tekshirishda sinov nusxasini chop etish qurilmasi, svetoproba tizimlari. Densitometrlar va spektrofotometrlar. Trafaret bosma uchun qolip tayyorlash texnologiyalari va uskunalari. Trafaret bosma qolipini tayyorlashda qo‘llanadigan materiallar.

5-Mavzu: O‘zbekiston sharoitida matbaa materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqarishning dolzARB muammolari. Smart-qadoqlar. Matbaa sanoatining rivojlanish istiqbollari.

Matbaa materiallarining asosiy turlari. O‘zbekiston sharoitida matbaa materiallari ishlab chiqarish. Mahalliy sharoitda qog‘oz ishlab chiqarish sohasidagi tadqiqotlar. Muqobil xomashyo asosida bo‘yoq va yelimlarni ishlab chiqarish yo‘nalishidagi izlanishlar. Qadoqlarning tuzilishi va xususiyatlari. Zamonaviy qadoqlarning tayyorlanishi va materiallari. Qadoqlarning loyihalanishi. Bosma axborot vositalarining rivojlanish istiqbollari.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Rastrli tasvirni gradatsion uzatish

Rastrlarning qo‘llanishi va funksiyasi. Rastrlash texnologiyalari. Tsvir tuzilishiga bog‘liq holda rastr tuzilmasi va burchaklarini tanlash. Tasvirlarning gradatsiyalarini boshqarish.

2-Amaliy mashg‘ulot: Tekis, ofset va chuqur bosma usulida qolip tayyorlash uchun jihozlar

Bosishgacha bo‘gan jaaryonlarning asosiy uskunalari. Ofset bosma qoliplari uchun rekorderlarning tuzilishi va turlari. Chuqur bosma qoliplarini elektron yozish qurilmalari.

3-Amaliy mashg‘ulot: Fleksografik bosma qolip tayyorlashda raqamli texnologiyalar

Fleksografik bosma qoliplarining xususiyatlari. Computer-to-Flexo texnologiyasi. Fleksografik bosma jarayonining o‘ziga xosliklari. Jihozlarning tuzilishi va ishslash prinsipi.

4-Amaliy mashg‘ulot: Bosma qolipni nazorati uchun texnik vositalar.

Bosma qoliplariga qo‘yiladigan talablar va ularning adadga chidamliligi. Bosma qoliplarini nazorat qilishda densitometrik vositalar. Qoliplarni tayyorlashda svetoproba jarayonlari.

5-Amaliy mashg‘ulot: Raqamli svetoproba uskunalari. Densitometrik va spektrofotometrik nazorat

Prepressda svetoproba jarayonlari. Lazerli va purkashli printerlarning tuzilishi va ishslash prinsipi. Spektrofotometrlarning qo‘llanilishi, tuzilishi va olingan natijalar asosida sifat nazoratini tashkil qilish.

6-Amaliy mashg‘ulot: Smart-qadoqlar

Yumshoq qadoqlarning loyihalanishi. Karton qadoqlarning tuzilishi va loyihalanishi. Zamonaviy qadoqlash materiallari. Smart qadoqlar sohasidagi zamonaviy trendlar.

Ko‘chma mashg‘ulot mazmuni

Matbaa-qadoqlash va noshirlik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarning texnologiyalarini o‘rganish sohaning yetakchi korxonalarini va laboratoriylarida olib boriladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN

INTERFAOL TA'LIM METODLARI

"FGMU" metodi

Texnologiyaning maqsadi: FGMU (Faraz-Savol-Muxokama-Umumlashtirish) – bu interfaol ta'lismetodlaridan biri bo'lib, ishtirokchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, savol-javob orqali bilimlarini chuqurlashtirish va dars jarayonini yanada samarali qilish uchun ishlataladi. FSMU metodi ishtirokchilarning o'rganish djarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi va ularning mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'rganishini ta'minlaydi.

FGMU metodining o'tkazish bosqichlari.

FGMU metodi quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi

1. Faraz (F) – Taxmin qilish

Bu bosqichda mavzuga oid taxminlar bildiriladi. Bu jarayon ularning ishtirokchilarning avvalgi bilimlarini faollashtirishga yordam beradi va ularni mavzuga tayyorlaydi.

2. Gipoteza (G) – Ilmiy farazni ilgari surish

Bu bosqichda ishtirokchilar mavzu bo'yicha ilmiy gepotezani ilgari suradilar. Ular oz fikrlarini anik va izchil bayon kilishga xarakat kiladilar.

3. Muxokama (M) – Fikr almashish va taxlil qilish

Bu bosqichda ishtirokchilar ilgari surilgan gipotezalarni muhokama qilib, ularni tahlil qiladilar. Muxokama jarayonida ishtirokchilar bir-birining fikrlarini tinglab, dalillar asosida o'z karashlarini tasdiklaydilar. Muxokama jarayoni ishtirokchilarning tankidiq va taxliliq fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ilmiy baxs yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat kiladi.

4. Umumlashtirish (U) – Xulosa chikarish

Bu bosqichda ishtirokchilar muhokama jarayonida o'rganilgan bilimlarni umumlashtiradilar va asosiy xulosalarini chiqaradilar. Ular oz farazlari va ilgari

surilgan gipotezalarining qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Namuna: Matbaa sanoatidagi innovatsion yexnika va texnologiyalar.

Topshiriq: Majkur topshiriqqa o'z munosabatingizni "FGMU" metodi orqali bayon eting.

"Keys-stadi" metodi

«Keys-stadi» metodi – bu tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Keys-stadi" metodi o'tkazish bosqichlari

1. Muammoni taqdim etish.

Ishtirokchi yoki tadqiqotchi muayyan vaziyat, muammo yoki voqeani taqdim etadi. Keych haqiqiy hayotdan yoki nazariy xolatdan olingan bo'lishi mumkin.

2. Ma'lumotlarni o'rghanish va taxlil qilish.

Ishtirokchi berilgan vaziyat bo'yicha dalillar, sabablar va ta'sir omillarini aniqlaydi.

3. Muqobil yechimlarni ishlab chiqish. Ishtirokchilar vaziyatni taxlil qilgan xolda turli variantlarni ishlab chiqadi va baxolaydi.

4. Yakuniy qaror qabul qilish va natijalarni taqdim etish.

Ishtirokchilar eng maqbul yechimni tanlab, uni taqdim etadilar.

"Keys-stadi" metodining afzalliklari

1. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash

2. Tanqidiy va ijobiy fikrlashni rivojlantirish

3. Muammolarni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish

4. Jamoaviy ish va muloqot ko'nikmasini shakllantirish

5. Qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish

6. Turli sohalarda qo'llash imkoniyati

7. Ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish

Namuna: Matbaa korxonasi ishlab chiqarish tizimini rovojlantirish usullarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish va ular asosida xulosalar ishlab chiqish.

"Brifing" metodi

«Brifing» metodi – qisqa va tezkor fikrlash, aniq axborot olish va tez qaror qabul qilish ko'nikmalarini hosil qilishga asos bo'ladi.

«Brifing» metodining asosiy xususiyatlari

1. Qisqa va aniq axborot berish

2. Muxokama qilish imkoniyati

3. O'zaro fikr almashish

- 4.Tezkor qaror qabul qilish
- 5.Ko'proq amaliyatga yo'naltirilganligi.
"Brifing" metodikasini olib borish tartibi.
1. Mavzuni belgilash va malumot tayyorlash
Ma'ruzachi mavzu boyicha aniq, lo'nda va tushunarli aksborot *tayyorlaydi*.
2. Malumotni takdim etish (Brifing)
Maruzachi 5-10 daqiqada mavzu boyicha asosiy fikrlarni yetkazadi.
3. Muxokama va savol-javob
Tinglovchilar berilgan malumot boicha savollar beradi va muxokamayuritadi.
4. Xulosa chiqarish va qaror qabul qilish
Ishtirokchilar tinglangan ma'lumotlar asosida o'z xulosalarini bildiradilar.
"Brifing" metodining afzallikkari qilib quyidagilarni keltirish mumkin:
 - 1.Vaqtni tejaydi
 - 2.Tinglovchilarning e'tiborini jamlaydi
 3. Tezkor fikr almashish imkonini beradi
- 4.Muxokama va qaror qa'bul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Assasment” metodi

“Assasment” metodi ishtirokchilarda obyektiv baholash, motivatsiyani oshirish,o'quv jarayoniyi samarali tashkil qilish va muammolarni yechishda shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi. “Assasment” metodining asosiy maqsadiga ilm olishda bilim darajasini aniqlash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va to'ldirish, ishtirokchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojantirish, hamda ularda rivojlanishni kuzatish, ta'lim sifatini oshirish va o'qishda motivatsiya olish hamda uni kengaytirish jarayonlari kiradi.

“Assasment” metodi asosiy turlari:


1. Diagnostik baholash-Bu turdag'i baholash dars boshida o'tkaziladi va o'quvchilarning mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik darajasi baxolanadi.
2. Formativ (jarayon davomida) baholash. O'quv jarayonida baholash natijalari bilan o'quvchilarga o'z bilimlarini to'g'ri yo'naltirish, o'qituvchilarga dars o'tish usullarini takomillashtirish, kamchiliklarni erta aniqlash imkonini beradi.
3. Yakunlovchi baholash. O'quvchilarning umumiyligi natijasini aniqlash,mavzu davomida erishilgan bilim va ko'nikmalarni tekshirish, o'quvchilarning muvaffaqiyatini rasmiy baholash hamda harakatlar strategiyasini shaklantirish imkonii beradi.

4. Insiativ (shaxsiy o'sish) baholash. Ishtirokchining tashabbuskorligi, o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi va mustakil qaror qabul kilish qobiliyatini o'lchash jarayonidir. Ushbu baholash yangi g'oyalar ilgari surish va tashabbus korsatish kobiliyati, muammolarni oz kuchi bilan xal qilish va natijalarga javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatini shakllantiradi.

“Venn diagrammasi” metodi

“Venn diagrammasi” metodi ma'lumotlarni vizual ravishda tushunishni osonlashtiradi. “Venn diagrammasi” metodi mavjud muammoni doira chizish , farklarni belgilash va umumiylilikni aniklash jarayonlarini o'z ichiga oladi, hamda ma'lumotlarni taqqoslash ,tahlil qilish,muammolarni hal qilish va ularni ta'lim tizimida qo'llash ham o'z ichiga oladi.

“Venn diagrammasi” metodida har bir muammo doiralar orqali tasvirlanadi, doiralarning kesishish qismi mavjudligi anilanadi natijada muammolar taqqoslashga qulay ko'rinishda shakllanadi. Metodning afzalligi murakkab tushunchalarni tushunarli va oddiy shklda ifodalaydi.



Namuna: Qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishuchun uskunalar tanlash.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Bosma qolip ishlab chiqarish texnologiyasi

Reja:

- 1.Qolip ishlab chiqarishda nusxa ko‘chirish jarayonlarining fizik-kimiyoviv asoslari.
- 2.Rastrli tasvirni gradatsion uzatish.
- 3.Reproduksion-grafik xossalarga ta’sir qiluvchi omillar.

1.Termosezgir qolip plastinalari XX asrning 90-yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Ular yorug‘likka emas, balki issiqlik nurlanishiga ta’sirlanadi. Plastinalar yaqqol namoyon bo‘lgan chegaraviy sezgirlik tavsifnomasiga ega. Yozish energiyasining chegaraviy qiymatiga erishilganidan keyin plastinaning yuzasi o‘zgaradi, bunda energiyaning chegaraviy qiymatdan ortib ketishi rastr nuqtalarining sifatiga deyarli ta’sir qilmaydi. Shunday qilib, eksponirlashda energiyaning yetmay qolishi yoki ortib ketishi muammosi mavjud emas.


Termosezgir qolip plastinalariga yozish jarayonida nurlanish manbai (lazer) ning profili muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab tipdag‘i lazerlar uchun tavsifli bo‘lgan «intensivlikning gaussli profillari» bilan bir qatorda keskinroq profillarga ega manbalar ham mavjud (Heidelberg/Creo firmasining Trendsetter qurilmasida). Keskin profillar o‘lchamlarining o‘zgarishi sezilarli bo‘lib ketmaydigan holda rastr nuqtalarining shakllanishini ta’minlaydi. Rasmida odatiy eksponirlash jarayonlariga taalluqli bo‘lgan tamoyil keltirilgan.

Termosezgir qolip plastinalari yorug‘likdan himoyalashga muhtoj emas, chunki ular ko‘rinadigan yorug‘likka sezgir emas. «Komepyuter – bosma qolip» texnologiyasi uchun tayyorlangan birinchi termoplastina sifatida termosezgir polimer qatlama ega Digital Plate/IR firmi Kodak plastipnasini ko‘rsatish mumkin. Tasvirni yozish jarayonida u mahalliy qiziydi, makromolekulalarning tikilishi sodir bo‘ladi. Tasvir yozildanidan keyin darxol sodir bo‘ladigan plastinani 125 °S gacha yakuniy qizdirishda makromolekulalarning yakuniy tikilishi sodir bo‘ladi. Keyin suv-ishqorda ochiltirish amalga oshiriladi. Rasm 4.3-25, a polimerlanuvchi qolip plastinalariga tasvir yozish bosqichlari va ochiltirish haqida tasavvur beradi. Qarama-qarshi jarayoni, aynan issiqlikda ajralish rasm 4.3-25,b. da ko‘rsatilgan.

Jadval 4.3-10 da alohida qolip plastinalarining tavsifli farqlari keltirilgan. Agfa firmasining Thermostar qolip plastinalariga keladigan bo‘lsak, 4.3-10 bo‘limga e’tibor qaratish kerak, u yerda termosezgir qolip plastinalarining boshqa turlari haqida ham batafsil ma’lumo keltirilgan. 4.3-11 da turli qolip plastinalari yuzalari mikrofotosuratlarining kattagina to‘plami keltirilgan. «Kompyuter – bolsma qolip» qurilmalarida issiqlik ablyatsion yoxish texnologiyasi rasm 4.3-26 da ko‘rsatilgan.

Ablyatsiya issiqlik energiyasi ta'siri ostida plastina eng yuza qatlamining buzilishini anglatadi. Ablyatsion ishlovchi qolip termoplastinalari uchun energiya berishning nisbatan yuqori quvvati talab qilinadi (500 dan 1000 mDj/sm² gacha).

1993 yilda Presstek firmasi shunga o'xshash qolip plastinalarini, xususan, namlashsiz ofset bosma plastinalarini birinchi marta taqdim qildi. Pearldry plastinasiga yuzasida oleofob (bo'yogni qabul qilmaydigan) silikon qatlam mavjud bo'lib, u lazer nurining issiqlik energiyasi ta'siri ostida maydonlardan ketkaziladi, buning natijasida bo'yogni qabul qiladigan pastki qatlam ochilib qoladi (rasm 4.4-6 va 4.4-9). Bu plastinalar ham alyuminiyli, ham lavsanli asosda yetkazib beriladi.



1-rasm. Ofset bosma qoliplarini ablyatsion tayyorlash texnologiyasi (lazer nurlanishini yutuvchi moddalar, qolip materialini tayyorlash texnologiyasiga bog'liq holda, rasmda ko'rsatilmagan yuqori yoki quyi qatlamda joylashadi): a yozishdan keyin tozalash; b tasvirni yozish vaqtida so'rib olish yo'li bilan tozalash

Presstek firmasi namlashli odatiy ofset bosma uchun bosma qoliplarini tayyorlashda qo'llash uchun raqamli qolip plastinalarini ham ishlab chiqqan

(Pearlwet). Bozorda hozirda ushbu plastinalarning ikkinchi avlodi ham taqdim qilingan: u Pearlgold qolip plastinasi bo‘lib, unda tasvirga mos keluvchi maydonlardan juda yupqa sezgir qatlam ketkaziladi. Rasmda taqdim qilingan DuPont firmasi tomonidan ishlab chiqilgan STD (Silver Dry Thermal) plastinalarida qo‘llanish o‘rnini topgan. Kumushga ega qatlam bo‘yoqni qabul qiladi. Tasvirni yozish jarayonida, ablyatsion (tarkibida kumushga ega) zarralarning so‘rib olinishi qoniqarli bo‘lganda, tozalashning alohida bosqichiga hojat qolmaydi. Presstek firmasining Pearl plastinalaridan farqli ravishda, plastinaning bo‘lajak oraliq elementlarga mos keladigan maydonlari lazer yordamida yoritiladi, ularning ostida qolipning gidrofil elementlari ochilib qoladi.

Termosezgir qolip plastinalarining yangi ishlanmalari «jarayonsiz plastinalarni» yaratishga yo‘naltirilgan, bu plastinalar kimyoviy yoki nam usulda ochiltirishni talab qilmaydi. Biroq, agar jarayon ablyatsiya, ya’ni zarralarning yuzadan ajralishi asosida kechsa, plastinalarni ochiltirish zarurati yuzaga keladi. Agar qolip o‘rnatilgan, qolip silindriga mahkamlangan bo‘lsa, uni tozalash bosma uskunasida amalga oshiriladi. Plastinani namlash valiklari yordamida yuvish mumkin. Bu usul *bosma uskunasida ochiltirish* deb nomlanadi. U analogli qolip plastinalari uchun ham qo‘llaniladi, masalan Polaroid firmasining DryTech Express plastinalari. Rasmda Polaroid firmasi tomonidan atqdim qilingan Laser Ablation Transfer (LAT) texnologiyasi namoyish qilingan.

Texnologiya	Materiallar	Eslatma
Polimerlanish	Kodak Polychrome Graphics: -Digital Plate/IR -Quantum 830 Fujifilm: Brillia LH-N	Yozish jarayonida bo‘yoqni qabul qiluvchi elementlar yoritiladi Dastlabki qizdirish talab qilinadi, UB-eyesponirlash uchun ham kerak Dastlabki qizdirish talab qilinadi, yorug‘likdan himoyalash kerak emas Katta adadlar uchun dastlabki qizdirish va kuydirish kerak (LH-N plastinalar uchun)
Termik parchalanish	Agfa: Thermostar Kodak Polychrome Graphics: – Electra DC – Quantum NPP	Yozish jarayonida bo‘yoqni qabul qilmaydigan (oraliq) maydonlar yoritiladi; odatiy ishqorli ochiltirish Electra DC birinchi marta Horsell-Anitec firmasi tomonidan yaratilgan;


	Fujifilm: Brillia LH-P Mitsubishi Chemicals: DiamondPlate LT-1 Lastra: Extrema 830	dastlabki qizdirish talab qilinmaydi: ishlov berishsiz pozitiv qolip plastinasi, buzilgan qatlamni yuvish bosma uskunasining namlash apparatida amalga oshiriladi (Polaroid firmasining konsepsiysi) LH-P dastlabki qizdirishsiz, kuydirishsiz, shuningdek UF-bo‘yoqlar bilan
Ablyatsiya	Presstek: – Pearldry – Pearlgold	Presstek plastinalarida bo‘yoqni qabul qiluvchi (bosiluvchi) elementlar yoritiladi. Pearldry namlashsiz ofset uchun mo‘ljallangan (asos, alyuminiy, lavsan)
Ablyatsion ko‘chirish		Bo‘yoqni qabul qiluvchi (bosiluvchi) maydonlarni donor-plenkadan alyuminiy plastinaga ko‘chirish. Qotirish uchun kuydirish ham talab qilinadi. (konsepsiya sifatida 1995 yilda Polaroid firmasi tomonidan taqdim qilingan)
Fizik fazani o‘zgartirish		Bo‘yoqni qabul qiluvchi (bosiluvchi) maydonlar termosezgir qatlam asosiga surtilgan qavatda termoplastik zarralarni eritish yo‘li bilan hosil qilinadi. Namlikni qabul qiluvchi (oraliq) maydonlar eksponirlanmagan maydonlarda hosil bo‘ladi (namlovchi eritma materialning erimagan maydonlarini namlaydi, ularga bo‘yoq

		surtilmaydi). Tasvirni bevosita bosma uskunasida yozish uchun yaroqli.
Sirt xususiyatlarini o‘zgartirish	(mikrokapsulalar vositasida)	<p>Turli ishlab chiqaruvchilar issiqlik nurlanishi ta’siri ostida o‘zining sirt xususiyatlarini tezkor o‘zgartiradigan plastinalarning rivojlanishi bo‘yicha o‘zlarining loyihibariga egalar (yakuniy ochiltirish talab qilinmaydi, shuning uchun bu texnologiya jarayonsiz deb nomlanadi).</p> <p>Creo firmasining «switchable Polymers» yoki «o‘zgaruvchan polimerlar» atamasiga ega patentidan yuzaga kelgan (rasm 4.4-23 ga qarang).</p> <p>Qatlamning ichida joylashadigan mikrokapsulalar issiqlik nurlanishi ta’siri ostida buziladi va bo‘yoqni qabul qiladigan (bosiluvchi) elementlarni shakllantiradi; ochiltirish talab qilinmaydi (texnologik ishlanma Asahi firmasi tomonidan IGAS 1997 matbaa ko‘rgazmasida taqdim qilingan va IPEX 98 vaqtidan boshlab bozorga chiqarilgan, rasm 4.4-18 ga qarang)</p>

Donor-folga alyuminiy plastinaga pishiq qilib mahkamlangan. Yozish jarayonida donor-folgadan plastinaga bo‘yoqni qabul qiluvchi polimer ko‘chiriladi. Bu texnologiya ranglarga ajratilgan, rastrlangan sinov nuxalarini (svetoprobani) tayyorlash imkonini beradi, bunda adad qog‘oziga (3.2-11 bo‘lim, rasm 3.2-77) bo‘yoq donor-folgadan ko‘chiriladi. Jadval 4.3-10 da termosezgir plastinalardan foydalananadigan texnologiyalar sharhi keltirilgan.

Yaqin yillarda shuni kutish mumkinki, ba’zi qolip plastinalari ishlab chiqaruvchilar to‘liq «jarayonsiz qolip plastinalarini» tavsiya qiladilar, ularning ishlashi ablyatsiyaga emas, balki yozish jarayonida yuza namlanishining o‘zgarishiga asoslanadi. Jarayonsiz qolip plastinalari jadval 4.3-10 da «o‘zgaruvchan yuza xususiyatlari» va «ablyatsion ko‘chirish» kabi plastina turlariga ajratilgan.

Запись



2-rasm. Ofset qolip plastinalariga (Polaroid)
yozish uchun ablyatsion ko‘chirish tamoyili (LAT: Laser Ablation Transfer)

Bu sohada «Kompyuter – bosma qolip» texnologiyasi uchun birinchi ishlanmalar XX asrning 80-yillarida paydo bo‘la boshlangan. Kichik o‘lchamli ofset bosma uskunalari uchun qog‘oz asosli qolip plastinalari ham mavjud, unda maxsus qog‘oz plastinaning asosi vazifasini bajaradi. Bunday turdag'i qolip materiali – qog‘oz asosga tasvir yozish elektrofotografik usulda amalga oshiriladi. Bu turdag'i qoliplardan kam adadlarni bosishda va sifatiga qo‘yiladigan talablar yuqori bo‘lмаган bir bo‘yoqli mahsulotlarni bosishda qo‘llaniladi. Usuldan aralash (triadadan tashqari) bo‘yoqlar bilan bosishda ham foydalaniladi. Qog‘oz asosning maksimal o‘lchami A3 ni tashkil qiladi.

Lavsan asosli qolip plastinalaridan ham foydalaniladi. Bunga o‘xshash birinchi material Mitsubishi Paper Mills firmasi tomonidan Silver Digiplate savdo belgisi ostida taqdim qilingan. Tasvirni yozish uchun nurlanishning kuchsiz energiyasidan foydalaniladi. Shu tufayli «Kompyuter – fotoqolip» tizimlarida bu materiallardan foydalananish katta qiziqish uyg‘otadi. Rasmida qolip plastinalarining tuzilishi va ishlov berish jarayoni ko‘rsatilgan. Alyuminiyli asosdagi kumushli plastinalardan farqli ravishda bu plastinalarda nusxa ko‘chirish qatlami tepe

tomonda, galogen-kumushli qatlam esa pastki tomonda bo‘ladi. Eksponirlangan kumush galogenidlari ochiltirilganda qorayib qoladi. Yoritilmagan kumush galogenid nusxa ko‘chirish qatlamiga diffuziyalanadi, qotadi va bo‘yoqni qabul qiladi (bosiluvchi element). «Bevosita pozitiv bosma qolip plastinalaridan» foydalanish katta sarmoyalarni talab qilmaydi, chunki eksponirlash fotoplenkalargna tasvir yozish uchun mo‘ljallangan odatiy eksponirlash qurilmalarida eksponirlanishi mumkin. Faqtgina ochiltirgichning boshqa tarkibi talab qilinadi. Qoliplarni ochiltirish ikkieritmali usulda amalga oshiriladi, unda faollashtirgich va barqarorlashtirgich mavjud bo‘ladi. Bu qolip plastinalari odatda kichik o‘lchamli (A4 va A3) rangli bosmada qo‘llaniladi. Ko‘pchilik bosmaxonalar bir bo‘yoqli bosma, masalan kitob bosish uchun katta o‘lchamli qolip plastinasidan foydalanadilar. Lavsani asosdagи plastinalar varaqli yoki rulonli ko‘rinishda yetkazib berilishi mumkin.


Fleksografik bosma uchun qolip plastinalari

Raqamli bosish uchun mo‘ljallangan fleksografik bosma qolip plastinalari fotopolimerlanuvchi va rezinali turlarga bo‘linadi.

Texnologiya	Material	Ishlab chiqaruvchi	Rastrning maksimal liniaturasi va adadga chidamlilik (varaqnusxa)	Eslatma
Fotoqolipga tasvir yozish, kumush asosdagи nusxa ko‘chiruvchi qatlam			Kichik o‘lchamlard a yuqori sifat, o‘rtacha o‘lchamlard a o‘rtacha sifat	Tasvir yozilganidan keyin ikki eritmali jarayon: 1. Faollashtirgich 2. Barqarorlash-tirgich

Qizil yorug‘lik diodlari yoki IQ-diodlar	SetPrint Plus	Agfa	70 lin/cm 20000	
Barcha to‘lqin uzunliklari uchun variantlar	Silver Digiplate	Mitsubishi Paper Mills	70 lin/cm 25000	Yevropada bozorda mavjud emas
Elektrofotografiya usuli bilan tasvir yozish (kukunli toner)	Laser Link LLP OmegaPlate ParagonPlate NovaDom Kimoplate Plazerplate Policel	Agfa Autotype LaserMaster Technova Kimoto Plazer PolicromScreens	Kichik adadlar uchun, bir bo‘yoqli bosma va dekorativ aralash bo‘yoqlar 15000 3000 15000	Yuqori xaroratli maxsus qotirish qurilmasi tasvirning qotishi va adadga chidamlilagini yaxshilaydi Bozorda 1998 yildan Plastina-sendvich (qog‘oz-lavsan)


Fotopolimerlanuvchi qolip plastinalari barqarorligi sababli bosishda, rezinali qoliplarga nisbatan, yaxshiroq natija ko‘rsatadi va shunga muvofiq yuqori liniaturali rastrli tuzilmalardan foydalanishga imkon beradi. BASF firmasining raqamli yozish uchun mo‘ljallangan fleksografik qolip plastinalari (digiflex) misolida bosma qolipida rastr nuqtalarining profili qay darajada «o‘tkir qirrali» bo‘la olishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bosish jarayoni va uning barqarorligini ta’minlash zarurati rastr nuqtalarining diametri 25 mkm dan kam bo‘lmasligini talab qiladi. *Rezinali plastinalarda* oraliq elementlar lazer vositasida bevosita o‘yish yo‘li bilan shakllantirilishi mumkin. Fotopolimerlanuvchi qolip plastinalariga yozish faqat lazerli nurlanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ularga o‘yish yo‘li bilan ishlov berib bo‘lmaydi. Plastinaga lazerli nurlanishga sezgir bo‘lgan qora qatlama surtilgan.





3-rasm. Kumushni diffuzion ko‘chirishdan foydalanib lavesanli asosdagi qolip plastinalariga tasvir yozish va ochiltirish (Silver Digiplate, Mitsubishi Paper Mills)

Manba nuri yozish barobarida qatlamni o‘zgartiradi (buzadi), qolgan maydonlar keyinchalik ultrabinafsha nurlanish bilan bir tekis yoritish yo‘li bilan asosiy eksponirlash uchun niqobni hosil qiladi. Bu asosiy eksponirlash polimerlanish jarayonini keltirib chiqaradi; bunda bosiluvchi elementlar mustahkamlanadi. Keyin qolipa odatiy kimyoviy ishlov beriladi, quritiladi, takroran yoritiladi. Lazerli yozish texnologiyasi nafaqat fleksografik bosma qoliplarini tayyorlashda, balki yuqori, chuqur va ofset bosmada ham qo‘llaniladi.


1997 yilda BASF Drucksysteme, Schepers Druckformtechnik, Saueressing va AKL Warburg korxonalarini birgalikda *Direct-to-Sleeve* (digisleeve savdo belgisi) nomli yangi texnologiyani taqdim qildilar.



4-rasm. Fleksografik bosma qolpidagi rastr nuqtalari mikrofotografiyasi (digiflex, BASF)




5-rasm. Fleksografik bosma uchun fotopolimerlanuvchi qolip plastinalariga tasvir yozish va ochiltirish



6-rasm. Fleksografik bosma uchun gilza (choksiz) (BASF)

Gilza (sleeve) bosma qolipini tayyorlashda foydalaniladigan tashuvchini anglatadi. Silindrik yuza chok bo'yicha tutashish joyida birlashadi. Gilza va bosma qolip, shunday qilib, bitta yaxlitlikdan iborat bo'ladi. Fleksografiya uchun mo'ljallangan ishlarning 90% dan ortig'i hozirda silindrلarga yoki gilzalarga montaj qilingan qoliplardan bosiladi. Dekorativ chegarasiz bosishning alohida sohalari, masalan, gulqog'oz yoki pol qoplamlarida bosish, rasmda ko'rsatilganidek, choksiz gilzalardan foydalanishni talab qiladi.

Oldindan orqa tomonidan eksponirlangan qolip plastinasi tayyorlash jarayonida dastlab asosga (gilzaga) yelimlanadi, keyin esa «Kompyuter – bosma qolip» qurilmasida tasvir yozish amalga oshiriladi. Qolip plastinasini hali sezgir qatlam bilan qoplanmagan, lekin orqa tomonidan dastlabki eksponirlangan gilzaga choksiz mahkamlash imkoniyati ham mavjud. Keyin yuzasiga ishlov berish va qolip plastinasining tashqi yuzasini lazer nurlanishiga sezgir bo'lgan qora qatlam bilan qoplash amalga oshiriladi. Yozish jarayoni tugallanganidan keyin plastina butun yuzasi bo'ylab UB-nurlanishda yoritiladi. Keyin yuvish, quritish va takroran nurlantirish kabi operatsiyalar amalga oshiriladi.



7-rasm. «Kompyuter – bosma qolip» tizimlarining rivojlanish tendensiyasi: jarayonsiz qolip plastinasi, bosma qoliplarini va svetoprobani tayyorlash uchun ko'p funksiyali qurilma



8-rasm. Qolip plastinalariga tasvir yozish va raqamli svetoprobani chiqarish uchun ko‘p funksiyali qurilma (Trendsetter Spectrum, Heidelberg/Creo)

Kelajakda qanday gilza texnologiyasi qo‘llanilishi masalasi hozirda ham ochiqligicha qolmoqda. Kelajakda undan foydalanishning yanada kengayishi shubha tug‘dirmaydi, chunki montaj ishlari qisqaradi va bo‘yoqlarni moslashtirishning yuqori aniqligi ta’milnadi.

«Kompyuter – bosma qolip» texnologiyalarining rivojlanish tendensiyasi. Hozirgi vaqtida ko‘plab «Kompyuter – bosma qolip» qurilmalari va tegishli qolip materiallari mavjud. Bu, bir tomondan, qarorlarni tanlashda potensial foydalanuvchilar uchun ma’lum ishonchsizlik keltirib chiqaradi, ikkinchi tomondan, tor vazifadagi «Kompyuter – bosma qolip» texnologiyasini qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Qaysi usulda va «Kompyuter – bosma qolip» texnologiyasining qaysi bosqichida raqamli svetoproba tayyoralinishi kerakligi masalasi to‘lig‘icha hal qilinmagan, chunki bu yerda analogli svetoproba tayyorlanadigan fotoqoliplardan foydalanilmaydi. PostScript formatini keyingi adad nusxasi bilan turlicha interpretatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun ham raqamli svetoproba uchun, ham qolip materiallariga tasvir yozish uchun aynan bir xil rastr protsessoridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bu muammoni hal qilishning turli texnikaviy yechimlari mavjud. Raqamli svetoproba va qolip plastinalariga tasvir yozish uchun rastrlash protsessorlarini birlashtirish rasmda har ikki RIP atrofida qizil chiziq bilan sxematik tarzda belgilangan.

Qizil punktir chiziq aynan bitta qurilmada raqamli svetoprobani tayyorlash va qolip materiallariga tasvir yozish tamoyilini anglatadi.

Texnik jihatdan bu konsepsiyanı amalga oshirish mumkin, lekin har bir alohida holatda bu usul qay darajada o‘zini oqlashi aniqlashtirilishi kerak.

Umuman olganda, har bir asosiy bo‘yoq uchun alohida progon talab qilinadi, shuning uchun ko‘p rangli sinov nusxasini tayyorlash ko‘p vaqt talab qiladi. Trendsetter Spectrum bozorda qolip plastinalarini chiqarish va raqamli svetoproba tayyorlash uchun uyg‘unlashgan ilk uskunalardan biri hisoblanadi.

Faqat termosezgir qolip plastinalariga taalluqli bo‘lgan va tasvir yozilganidan so‘ng bosma qoliplarini kimiyoiy ochiltirish talab qilmaydigan boshqa tendensiya rasm 4.3-32 da qizil strelka bilan ko‘rsatilgan. Kimyoiy ochiltirish talab qilmaydigan birinchi plastinalar sifatida Presstek firmasi tomonidan ishlab chiqilgan namlashsiz ofset uchun mo‘ljallangan Pearldry plastinalarini ko‘rsatish mumkin. Tasvir yozilganidan keyin faqat tozalash jarayoni amal qilib, u qolip yuzasidan qatlamdan ko‘chgan zarralarning ketkazilishini ta’minlaydi. Ko‘p sonli ishlab chiqaruvchilarning «jarayonsiz termosezgir qolip plastinasi»ni yaratish va uni amalda qo‘llash uchun yaroqli qilish qilishga intilishlari e’tiborga molik. Qoliplarni tayyorlashning bu texnologiyasi ablyatsiyaga asoslanganligi tufayli, qatlamdan ko‘chirilgan zarralarni ketkazish zarurati tufayli jarayonsiz uslub g‘oyasi hozircha to‘liq amalga oshirilmagan. Boshqa texnologiyalar, masalan, «o‘zgaruvchan polimer» va h.k. lar ham tadqiq qilinmoqda.

Agar tasvir yozilgan qolip plastinalarini kimiyoiy ochiltirish va tozalash talab qilinmasa, prepress jarayonning ishonchliligi ta’minlanadi. Kimyoiy eritmalar va energiyani tejash imkonini yaratiladi.

«Kompyuter – bosma qolip» tizimida ishlabchiqaruvchilarning kooperatsiyalashuvi kutilmoqda, buning natijasida takliflarning tarli-tumanligi qisqaradi. 1997 yilda dunyo bo‘yicha 600 ta tizim o‘rnatilgan, 1998 yilda 2000 ta, 2000 yilda 5 mingta.

2. Bosiluvchi material yuzasiga bir xil tasvirlarni ranglari ajratilgan qoliplardan boyoqlar yordamida, ketma-ket bosish yo‘li bilan ko‘p rangli tasvirlar hosil qilinadi. Bitta yoki bir necha boyoqli uskunalardan foydalanilgan holatda birinchi boyoq «quruq» usulda yoki «nam» usulda amalga oshiriladi.

Bosma sektsiyalari miqdori boyoqlar miqdoriga teng bo‘lgan uskunalar rotatsion tarzda tuzilgan bo‘lib, varaqli va rulonli uskunalarga ajratiladi. Ularda bosish «nam» usulda bajariladi.

Odatda, «nam» usulda bosish yuqori tezlikdagi seksiyali tuzilishga ega bo‘lgan varaqli va rulonli rotatsion uskunalarda amalga oshiriladi. Bunday uskunalarda bitta varaq o‘tkazilishida izchil ravishda 0,1-0,3 sekund tanaffus bo‘lgani holatida qo‘shma boyoqlar bosilishi o‘rtasida ularning alohida qoliplardan bosilayotgan materialga o‘tkazilishi yuz beradi. Bunday qisqa vaqt oralig’ida

nusxaga tushgan boyoq navbatdagi boyoq qovushqoqliligi aytarli o'zgarmagan tarzda munosabatga kirishadi.

«Quruq» usulda bosishda nusxalardagi rastr elementlari «nam» usulda bosishdagi holatga nisbatan ancha aniq konturlarni vujudga keltiradi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, birinchi holatda ular keyingi o'tkazishlarda o'zgarishlarga uchramaydi. Har bir boyoq qatlaming qalinligi boshqa boyoqlar qatlamlari qalinligidan farq qilmaydi, chunki $K_{o'tish}$ koeffitsiyenti barcha boyoqlar uchun amalda bir xildir. Diffuziya jarayonlari yo'qligi tufayli boyoq qatlamlarining aralashib ketishi ham yuz bermaydi. «Quruq» usulda bosishning kamchiligi bosish jarayonining uzoq davom etishi, navbatdagi boyoqni bosishda rang tuzatilishining murakkabligidir. «Nam» usulda bosish «quruq» bosishga xos ko'pchilik kamchiliklardan holi.

Iqtisodiy jihatdan eng samarali, texnologik jihatdan kam tizmali usulni tanlashda asosan quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda belgilanadi:

- * bosma qoliplar, materiallar qiymati;
- * bosma silindr aylanishining tezligi bilangina emas, bosma silindrning bir aylanishida bir yoki ikki tomonlama bosish, bosma varaqning o'lchami bilan ham belgilanadigan uskunalar ish unumдорligi;
- * uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasi va soni;
- * adad bosilishi jarayonida bosma uskunaning ishonchliligi;
- * bosma mahsulot sifat ko'rsatkichlari nazorat usullari.

Bugungi kunda aslnusxaning aniq rangini hosil qilishda avtomatik qayta ishlash jarayonlari keng qo'llanmoqda. Xohish bo'yicha optimallashtirilgan reproduksiyani olish vaqtida, ko'pincha tasvirlarni qayta ishlovchi malakali mutaxassislarning qo'l mehnati aralashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Tasvirni avtomatik tahlil qilish va optimallashtirish usullari faqat bir necha so'nggi yillar davomida rivojlanmoqda va odatda hozircha qo'lda tuzatish kiritishning o'rnini bosa olmayapti.

Rangli reproduksiya sifatini belgilaydigan boshqa omillar avvalo, bosma bo'yoqlar, bosiladigan material xossalariiga, qo'llanayotgan bosma usuliga, bosma jarayonini amalga oshirish sharoitlariga, aslnusxa turiga va rang ajratish parametrlariga bog'liq.

Ishlatilayotgan bosma bo'yoqlar va bosiladigan materialning kolorimetrik xususiyatlari hosil qilinadigan rang qamroviga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bo'yoqda qanday qirmizi rang qo'llanishi katta ahamiyatga ega. Nisbatan qimmat rodamin qirmizi rangi avvalo ko'k va qirmizi ranglar sohasidagi rang fazosini kengaytiradi.

Bosiladigan material ham maksimal hosil qilinadigan zichliklar intervalini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi, shuning uchun rang kontrastiga ta'sir qiladi. Bo'rlanmagan qog'ozlar uchun zichliklarning odatdag'i intervali asosiy bo'yoqlar ustma-ust bosilganda taxminan 1,5 birlikni, bo'rlangan qog'ozlar uchun esa - qariyb 2,0 birlikni tashkil etadi.


Rangli reproduksiya sifatini belgilaydigan eng muhim omil – bevosita rang ajratish hisoblanadi. Bunda shuni hisobga olish kerakki, juda ko'p hollarda ko'p rangli bosma - bu uch rangli reproduksiya jarayonidir, ya'ni barcha ranglar uchta asosiy bo'yoqlarni aralashtirish orqali olinadi.

Hatto, amaliyotda to'rtinchchi bo'yoq sifatida qora rang qo'shilgan holatlarda ham matbaa reproduksiya jarayonida barcha ranglar turli-tumanligi uch asosiy bo'yoqlar yordamida olinadi. Bunda ranglari ajratilgan tasvirlarni tayyorlash uchun zarur bo'lган rang ajratish jarayonida maksimal aniq rang hosil qilish uchun ishlatilayotgan yorug'lik filtrlari bosma bo'yoqlarga qanchalik mos kelishi prinsipial muhim ahamiyatga ega. Agar yorug'lik filtrlari optimal tarzda tanlanmagan bo'lsa, u holda rangni qo'shimcha o'zgartirish zarur bo'ladi.

Ranglarga ajratish. Matbaa sohasida rang sintezi aslida avtotip rang sintezi bo'lishiga qaramay, rangli tasvirni olish uchun zarur bo'lган ranglarga ajratish jarayoni ranglarni subtraktiv aralashtirish uchun mo'ljallangan.


Ko'p rangli bosmada rastr nuqtalari ham bir-biridan alohida tarzda, ham biri boshqasining ustidan joylashadi. Bosilgan nusxada ikki turdag'i aralashuv yuz beradi: **subtraktiv** (turli bo'yoqlar uchun rastr nuqtalarini ketma-ket ustma-ust bosish) va **additiv** (bir qator turgan turli rangli rastr nuqtalarini kuzatuvchining ko'zi tomonidan birlashtirilishi) [5].

1-rasmda bu holat uch bo'yoqli nusxa misolida ko'rsatilgan. 2 -rasmda esa, ranglari ajratilgan tasvirlar va to'rt rangli ofset bosma uskunasida bosish vaqtida bo'yoqlarning ketma-ket ustma-ust tushishi keltirilgan.



1-rasm. Avtotip ko‘p rangli bosma (nusxa mikrofotografiyalari), rastr nuqtalari orasidagi masofa qariyb 167 mkm: **a** rangli tasvirning bir tekis maydoni (3 rangli nusxa); **b** rangli tasvirning mayda detali (4 rangli nusxa)

Yetarli darajada kichik, biri boshqasining yonida yotgan rastr nuqtalari additiv rang sinteziga mos keladi, xuddi rangli monitor lyuminessent qoplamasi elementlari qo‘zg‘atilgan holatga o‘xshab. Shunga qiyosan reproduksiyada rastr nuqtalari (bo‘yagan yuzalar) yoritiladi va sochilgan (qaytarilgan) yorug‘lik kuzatuvchining ko‘ziga kelib tushadi, u erda esa tegishli rang qo‘zg‘atuvchilari qo‘shiladi.




2-rasm. Ranglari ajratilgan tasvirlar va reproduksiya bo‘yoqlarini ketma-ket ustma-ust tushirish (to‘rt rangli offset bosmada)

Subtraktiv rang sintezining fizik prinsipi amalga oshishi uchun, bosiladigan materialga tushiriladigan bo‘yoq qatlamlari shaffof bo‘lishi, ya’ni, rangli yorug‘lik filtrlari kabi ta’sir qilishi kerak.

Rastr tuzilmasini ko‘p rangli reproduksiyalash vaqtidagi avtotip jarayonida bo‘yoqlar ketma-ket ustma-ust tushirilganda ularni bir-biriga moslashtirishni rostlash muqarrar ravishda subtraktiv va additiv rang aralashuvining murakkab, o‘zgaruvchan birikmasi paydo bo‘lishiga olib keladi. Shundan bosma bo‘yoqlarning spektral xossalari muhim talab kelib chiqadi.

Ideal asosiy bosma bo‘yoqlarga qo‘yilgan bu talab faqat ularning spektral egri chiziqlari P-simon ko‘rinishga mos kelgan hollarda bajariladi. Bunda spektral kattaliklar qiymatlari 0 va 1 oralig‘ida joylashadi, va funksiyaning ikkitadan ortiq sakrashlari bo‘lmasligi kerak (rastrli reproduksiya vaqtida paydo bo‘ladigan o‘ziga xos effektlar, masalan, yorug‘lik yutilishi bu erda hisobga olinmaydi).

Buning ustiga, barcha uch bo‘yoqlarning P-simon *spektral egri chiziqlari bir-biriga mukammal tutashib turishi kerak*. Undan keyin, P-simon *spektral egri chiziqlarning o‘tish maydonlarini shu tarzda tanlash kerakki, yaxlit bo‘yoq qatlamlari bo‘yicha imkon qadar mumkin bo‘lgan* rang diapazonini olish mumkin bo‘lsin. Turli tajribalarning ko‘rsatishicha, birinchi ideal tafovut 489 va 495 nm orasida, ikkinchisi esa - 574 va 575 nm orasida bo‘lishi kerak. Tegishli spektral taqsimlanishlar 3-rasmda tasvirlangan [5].



3-rasm. “Ideal” bo‘yoqlar uchun spektral taqsimlanishlar (nisbiy yorug‘lik qaytishi)

Sanab o‘tilgan talablarga javob beradigan asosiy bo‘yoqlar ideal yoki optimal bo‘yoqlar deb ham ataladi.


Matbaa sanoatida ishlatiladigan ba'zi materiallar (masalan, bo'yoklar va kimyoviy moddalar) atrof-muxitga salbiy ta'sir korsatishi mumkin. Matbaa materiallarining ekologiyaga katta xavflarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarni hal kilish uchun ekologik standartlarga rioya kilish va yashil texnologiyalarni ishlab chikish zarur.

5. Maxalliy bozorning kichikligi va raqobat

Matbaa maxsulotlari ishlab chikaruvchilari uchun Uzbekistonda bozor nisbatan kichikdir. Bu esa maxalliy ishab chigaruvchilarni global brendlar bilan ishlashda to'siqlarni yaratadi. Shuningdek, matbaa mahsulotlarining eksporti cheklangan, bu esa sanoatni rivojlantirishda muammolarni ham ko'paytiradi.

Qonunchilik va tartibga solish muammolari.

Matbaa sanoatida intellektualniy mulk xukuklari, ishlab chikarish standartlari va sertifikatlash bilan bog'lik muammolar xam mavjud. Ko'pincha matbaa maxsulotlari uchun kerakli xuquqiy ximoya va sertifikatlar yo'kligi sababli sifat nazoratini ham amalga oshirishga vaqt talab etadi.

Investitsiilar va moliyaviy ku'llab-kuvvatlash.

Sanoatning rivodjlanishi uchun zarur bolgan investitsiyalarni jalb kilish muammosi xam dolzarbdir. Matbaa sanoatiga kirish uchun yirik moliyaviy mablag'lar kerak bo'ladi, lekin kichik va o'rta korxonalar uchun kredit olish va Investitsiyalarni jalb qilish qiyin.


Matbaa materiali va maxsulotlarini ishlab chikarish Uzbekiston sharoitida bir kancha muammolarni oz ichiga oladi, homashyo masalalarni xal kilish uchun xukumat, tadbirkorlar va ilmiy-tadkikot instituti o'rtasida xamkorlikni kuchaytirish zarur. Maxalliy ishlab chikarishni rivojlantirish va texnologicheskiy yangilash, ekotexnologiyalarni qollash va malakali kadrlarni tayyorlash bu soha rivojiga katta turtki bo'ladi.

2. Raqamli bosma turi- past tannarx ,yuqori sifat , bosishgacha jarayonlarning yo'qligi, bosma materiallar hilma-hilligi, yuqori chop etish tezligi bilan boshqa turlardan ajralib turadi. Ish tartibi – tasvir kompyuterdan qog'oz va plyonka yuzasiga o'tadi.

Raqamli bosma yuqori sifat bilan tezlikni birlashtirilgan holati hisoblanib, bir kamchiliklardan ham holi emas. Afsuski adaning o'sishi mahsulotning tannarxiga deyarli ta'sir qilmaydi. Shuning uchun ham bunday chop etish usulidan kichik tirajlarda foydalanish tavsiya etiladi.

Raqamli bosma uchun ikki hil chop etish uskunalarini mavjud. Bir turdagi raqamli uskunalar butunlay raqamlashtirilgan offset texnologiyali bosishgacha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Topshiriq rasstrli prosessorda qayta ishlanib, uskunaga to'g'ri yuboriladi va o'sha joyda eksponirlanadi. Bu jarayonni "Quruq ofset" deb ham ataladi, unda namlantiruvchi apparat mavjud emas.

Ikkinchi tur elektrografik bosma usuliga asoslangan. Har bir nusxa oldigisidan farqlanadi, bu esa ularni personallashtiradi.Quruq ofset uskunalarida plyonkalar bilan ham ishslash imkonini beradi, bu esa qadoq va etiketka soxasida qo'llashni kengaytiradi.



1-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Ba'zan raqamli uskunalar ayniqsa rulonlilar flekso bosma seksiyalari bilan integrasiyalanadi, bundan tashqari oyish va laminatsiya uskunalari ham qo'llanishi mumkin.

Etiketka va qadoqlar soxasida yangi texnologiyalarni qo'llash keng tarqalmagan. Hattoki g'arb davlatlarida ham ular 3%ni tashkil etadi. Kichik va juda kichik adadlardagi etiketka va qadoqlar chop etish uchun qo'llanishi o'zini oqlaydi.

Raqamli bosma kichik hajmdagi import yoki namuna-sinov mahsulotni tezlik bilan markirovkalash uchun qo'llashda betakror hisoblanadi. Raqamli bosma usuli kichik hajmli va o'zgaruvchan talabli mahsulotlarni: yangi meva sharbatlari, qimmatbaxo qandolatchilik va boshqa turdag'i mahsulotlarni etiketkalashda betakrordir.



2-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Bundan tashqari ushbu chop etish usuli eksklyuziv sovg'alar uchun ham juda qulay. Ba'zi tashkilotlar shahsiy logotipli qadoqlar(yubileylar uchun) ishlab chiqarish uchun ham aynan shu usul qulay hisoblanadi.

Raqamli bosma usuli qadoq sanoatiga aktiv ravishda kirib kelmoqda , butun dunyodagi bosmaxonalarning 32%i ushbu usulni taklif qilishadi. Odatda ular etiketka, yumshoq va karton qadoqlar hamda gofrokarton qadoqlarni o'z ichiga oladi.

Smithers Pira kompaniyasining olib brogan tadqiqodlari natijasida bunday analog qadoqlar hajmi 28% ga oshganligini ko'rsatdi, buni seriyali qadoq ishlab chiqarish hajmi oshganligini bilan bog'lash mumkin.

Indigo Omnis uskunalari kichik tirajdagi tahlovli qutilarga chop etishda yuqori sifatni ta'minlaydi, ammo chop etish formati cheklanganligi va bosishdan keyingi liniyaga moslash qiyinligi asosiy kamchilik hisoblanadi.



3-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Varraqli Computer-to-Press raqamli 85ffset sistemalar , masalan Quickmaster DI (Heidelberger Druckmaschinen AG) yoki 74 Karat (KVA) va Scitex uskunalarini iqtisodiy tejamkor bo'lib, ular kattaroq adadlar bilan ishlash uchun ham mo'ljallangan, ammo chop etish materiallarining turlari va o'lchamlari chegaralanganligi kamchiliklaridan hisoblanadi. Bunday uskunalar dori mahsulotlari qadoqlarini qizqa muddatlarda chop etishda qo'llash qulaydir.

So'nggi yillardagi qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi krizis holatida raqamli bosma usuli yiliga 3.3% ko'rsatkich bilan o'sayotgan yagona soha hisoblanadi. Bundan gofromahsulotlar 4% , yumshoq qadoqlar 3%, qog'oz qoplar esa 1.5% ga oshgan ko'rsatkichlarni tahskil etadi.

Marketsand Markets tashkiloti "Qadoqlarni raqamli bosma usulda chop etishning 2026 yilgacha global bashorati"da boshqa turli hil texnologiyalarni(termotransfer, elektrografiya va elektrostatika, purkashli bosma), qadoq turlari(etiketka, yumshoq va boshqa), siyoh tiplari, bosma o'lchamlar, qo'llanish va hududlarni hisobga olgan holda 10 yil ichida bozor 11.42 mlrddan 42.11mlrd dollarga, ya'ni yiliga 13.9% ga o'sishi kutilmoqda. Bunday o'sish sanoat mahsulotlari, farmaseftika, maishiy mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini shiddat bilan o'sishi bilan bo'g'lash mumkin.



4-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Qadoq ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli bosma usuli analog bosma uchun to'ldiruvchi ko'rinishiga aylandi. Bunda ularga yangidan yangi takliflar berish imkonи mavjud. Raqobatdosh bo'lish uchun ishlab chiqaruvchilar doimo kichik adadlar uchun qulay va iqtisodiy tejamkor zamonaviy raqamli bosma usuli uskunalariga e'tibor qaratishni talab etmoqdalar.

Etiketkalar va qadoqlar ishlab chiqarish takomillashib rivojlanib kelmoqda.Har yili qadoq va etiketkalarning zamonaviy va mashhur tendensiyalariga e'tibor berish ishlab chiqaruvchilar uchun zamon talabiga aylanib qoldi.

Zamonaviy tendensiyalardan biri bu ekologik qadoq va etiketkadir.Ekologik etiketka va qadoq oz muddatlik moda bo‘lmay, hozirda jamiyatning ehtiyojiga to‘liq aylangan. Atrof muhitni asrash global tendensiyaga aylangan bir paytda, ekologik etiketka va qadoq quyidagilarga asoslanadi:

- tabiatga zararsiz mahsulot qo‘llash- qog’oz, karton, biochiruvchi polimer ;
- tabiiylikni ko‘rsatuvchi dizayn- kraft qog’oz, tabiiy tonlar;
- ishlab chiqarishda zararli ta’sirlarni barcha jarayonlarda minimallashtirish- chiqindilarni boshqarish, ishlatilgan tabiiy resurslarni to‘ldirish.




5-rasm. Raqamli bosma sxemasi


Aqli etiketka va qadoq ham zamonaviy tendensiyalardan biridir. Yangi texnologiyalar sababli etiketka va qadoqlar qo‘srimcha funksiyalarga ega bo‘ldi. Qadoq va etiketkalarga QR-kodlar va turli belgilar qo‘yilishi , haridorning mobil ilovalari yordamida mahsulot haqida turli ma’lumotlar olish imkonini beradi.Bu esa mahsulotni qalbakilashtirishning ham ma’lum miqdorda oldini olishga hizmat qiladi. Bundan tashqari aqli qadoq etiketkalar mahsulotning saqlanish tartibidagi hatoliklarni ham ko‘rsatadi. Bunda talab etiladigan harorat o‘zgarsa qadoq o‘z rangini o‘zgartiradi yoki mahsulotning iste’mol muddati tugasa.

Maqsadga minimal sarf harajatlar bilan erishish zamonaviy shakl bo‘lib, shu kabi qadoq va etiketkalar aniq dizaynida ham ortiqcha detallardan voz kechish, optimal o‘lcham, ergonomik konstruksiya – etiketka va qadoqning minimal o‘lchamlari estetik va iqtisodiy tomonidan juda qulaydir. Oddiy tipografika, bitta

tasvir va yorqin rang asosiy trendlardan biridir. Bunday dizayn e'tibor tortuvchi zamonaviy dizayn hamdir.



6-rasm. Raqamli bosma sxemasi



7-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Ammo bunga qarama-qarshi xolda minimalistic etiketkalar va qadoqlarning orasida ajralib turish uchun ham maksimalistik dizayn ham qo'llaniladi. Yani butun yuza ma'lumotlar, rang va tipografika bilan to'ldiriladi.



8-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Qadoq va etiketkalardagi emotsionallik ya’ni kayfiyat berish hususiyati ham katta ahamiyatga ega. Ya’ni, qadoq va etiketkalarning istemolchiga ta’sir ko‘rsatishi, ilhomlantirishi, qiziqtirishi, orzularga eltishi va kayfiyatga ijobiy ta’sir qilish hususiyatlari keyinchalik bu mahsulotni sevimli mahsulotga aylanishiga olib keladi. Albatta bu iqtisodiy tomondan ijobiy ko‘rsatkichlarga olib keladi.

Yirik brendlар o‘z mahsulotlarini istemolchilarga shahslantirishga ahamiyat berish kata iqtisodiy yutuqlarga olib kelishini tavsiya etdilar. Har bir istemolchi mahsulotlarning maxsus u uchun ishlab-chiqarilganlik xissi ijobiy natijalar berdi. Masalan, coca-cola brendi butilkalar etiketkalarida ismlar yozilishi marketingda effektiv qadam bo‘ldi.



9-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Bejirim etiketka va qadoq doim mahsulotning sotilish darajasiga eng katta ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Oddiy rangli politralar va bitta rangli yozuv qadoq va etiketkalarni peshtaxtada boshqa analog mahsulotlardan ajratib turib, e’tiborni tortadi.



10-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Bunday jalb qiluvchi etiketka va qadoqlarga nostalgik dizaynni ham qo‘llash mumkin, albatta bu odamlarda o‘tmish xotiralar va kayfiyat uyg’otadi.



11-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Zamonaviy tendensiyalarga tekstil etiketkalar va taralarni ham aytib o‘tish lozim. Mahsulot dizayni bu oddiy estetika bo‘lmay, etiketkaning teksturasini va mahsulotni his etish ham muhim. Buni albatta onlayn holda xis qila olmaymiz. Shuning uchun xam etiketka va qadoqlarga turli zamonaviy ishlovlar berish zamon talabiga aylandi.

Bundan tashqari biror bir g’oya yoki fikrni yetkazish uchun ham qo‘llaniladigan yozuvli yoki tasvirli etiketka va qadoqlar zamonaviy trendlarga ham aylandi. Albatta bunday etiketka va qadoqlar juda keng tarqaldi. Bu ham atrof –muhit muammolariga o‘z hissasini qoshishi aniq. Masalan quyidagi qadoqda suvga isrofi oldini olish g’oyasi berilgan –“Ishlatguningcha suvni o‘chirib qo‘y!!!!”.



12-rasm. Raqamli bosma sxemasi

Katta raqobat va istemolchilar talablarining ko‘payishi bilan ishlab chiqaruvchilarning o‘z mahsulotlari tashqi ko‘rinishi ustida tinmay ishlashlarini taqozo etadi. Odatda qadoq va etiketkalar har 5-7 yilda almashtilishi tavsiya etiladi. Ammo o‘rganilgan dizayndan mutlaqo qochish har doim ham muvaffaqiyat olib kelmaydi. Shuning uchun qadoq va etiketkalar dizaynida yengil o‘zgarishlar kiritilishi yangilik bera oladi. Har qanday holatda ham ishlab chiqaruvchilar o‘z

mahsulotlari “redizayn”idan qo‘rmasliklari va zamon talabi sifatida qa’bul qilishlari zarur. Bu esa muvaffaqiyat garovlaridan biridir

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot:

RASTRLI TASVIRNI GRADATSION UZATISH

Rastrlarning qo‘llanishi va funksiyasi. Rastrlash texnologiyalari. Tsvir tuzilishiga bog‘liq holda rastr tuzilmasi va burchaklarini tanlash. Tasvirlarning gradatsiyalarini boshqarish.

Ishning maqsadi: ranglarga ajratish va rastrlash jarayonlarining vazifasini o‘rganish, kompozit va ajratilgan PostScript-fayllarni yaratishni o‘rganish, materialga tasvir yozish asoslarini o‘zlashtirish.

Ishning bajarilish tartibi

Amaliy qism

Topshiriq 1. Sodda tasvirlarni standart CMYK-ranglarga ajratishni amalga oshirish:

- qora matnga ega bo‘lgan;
- qora tarkibiy fonga ega bo‘lgan;
- oq-qora elementlarga ega bo‘lgan.

Topshiriq 2. Tasvirlarni to‘liq bo‘lmagan ranglarga ajratish:

- Duotone rejimi yordamida;
- Pantone palitrasи ranglaridan foydalanish hisobiga ranglarning miqdorini kamaytirgan holda Multichannel rejimi yordamida.

Topshiriq 3. «Yangi plashkali kanal» opsiyasi yordamida tasvirlarni to‘liq ranglarga ajratishni amalga oshirish.

Topshiriq 4. Overprint va Trapping parametrlarining qo‘llanilishini o‘zlashtirish.

Topshiriq 5. PostScript-fayl, PDF-fayl, PDF/X-3-fayllarni yaratish, ularni tekshirish.

Topshiriq 6. Tasvirlarni rastrlash va qoliplarni chiqarishni amalga oshirish.

Topshiriq 7. Hisoblash qismini amalga oshirish.

Laboratoriya mashg‘ulotiga kerak bo‘ladigan jihozlar

Tavsifnomalari 3-jadvalda keltirilgan qolip tayyorlash uskunasi, tavsifnomalari 4-jadvalda keltirilgan ishlov berish protsessori. Qolip plastinasi, ishlov berish eritmalarini.

1-jadval

Qolip tayyorlash uskunasining texnik tavsifnomalari

Ko‘rsatkich	Qiymatlari
Uskunaning rusumi	
Uskunaning turi	
Material o‘lchami	
Eksponirlash o‘lchami	
Imkonli qobiliyati	
Liniatura qiymatlari diapazoni	
Takrorlanish	
Eksponirlash tezligi	
Boshqa tavsifnomalar	

2-jadval

Ochiltirish uskunasining texnik tavsifnomalari

Ko‘rsatkich	Qiymatlari
Uskunaning rusumi	
Uskunaning turi	
Material o‘lchami	
Texnologik xaroratlar	
Ochiltirish tezligi	
Boshqa tavsifnomalar	

Umumiy ma’lumotlar

Ranglarga ajratish – bu rangli tasvirni rang modelining bazaviy ranglariga ajratish jarayoni. Grafik paketlarda ranglarga ajratish tasvirni CMYK modeliga konvertatsiya qilishdan iborat.

Shtrixli tasvirni ranglarga ajratish uni shakllantirish jarayonida amalga oshiriladi, chunki tasvirlarni yaratish yoki ularni vektorlashtirishda faqat CMYK rang modelidan foydalaniladi.

Rastrli tasvirni ranglarga ajratish quyidagi bosqichlar bo‘yicha grafik ishlov berish paketlarida amalga oshiriladi.

1. Ishchi faylning nusxasini yaratish.
2. Tasvirdagi niqoblar va α -kanallarni ketkazish.
3. Barcha qatlamlarni birlashtirish.
4. Rang o‘tishlarini CMYK rang modeliga sozlash:
 - foydalaniladigan qog‘oz va bo‘yoqning standartini ko‘rsatish;

- agar bosma jarayonining tavsifnomalari ma'lum bo'lsa, rastr nuqtalarining kattalashuvini hisobga olgan holda rastr nuqtalarining o'lchamini berish;
- ranglarga ajratish usulini tanlash GCR yoki UCR;
- UCA usuli uchun podsvetka qo'shish foizini ko'rsatish;
- qorani generatsiya qilish darajasini tanlash;
- qora bo'yoqning maksimal miqdorini berish;
- bo'yoqlarning umumiy miqdorini tanlash.

5. CMYK ga o'tishni amalga oshirish, ya'ni ranglarga ajratish.

6. Raqamli tasvirni nazorat qilish. Axborotni chiqarish ketma-ketligini quyidagi sxema ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

Sahifalash faylini yaratish -

PostScript faylini yaratish -

Rastrlash -

Eksponirlash -


Ishlov berish –

Sahifalash faylini yaratishda bo'lajak fotoqolip yoki bosma qolipning perimetri bo'yicha keyingi texnologik jarayonlarni nazorat qilish uchun mo'ljallangan bir qator nazorat belgilari yaratiladi (3-jadval).

3-jadval

Nazorat belgilarining turlari

Belginig turi	Belgining vazifasi
	Postpress ishlarini bajarish uchun qirqish va/yoki buklash belgisi
	Bosma jarayonini nazorat qilish uchun bosma bo'yoqlarini moslashtirish belgisi
	Tasvirlarning hosil bo'lishini nazorat qilish uchun 100, 95, 75, 50, 25, 5, 0% li rastr nuqtalariga ega bo'lgan gradatsion shkala



Bosma jarayonining nuqsonlarini nazorat qilish uchun har bir bo‘yoqqa tegishli radial mira: parchalanish, ikkilanish va h.k.

PostScript faylni yaratishda quyidagi parametrlarni sozlash mumkin:

1) fotoqolip yoki bosma qoliplarni chiqarish uchun javob beradigan qurilma drayveri;

2) chiqarishning eni;

3) yaratiladigan faylning turi: ajratilgan yoki kompozit. Ajratilgan yoki ranglarga ajratilgan faylda tasvirda har bir bosma bo‘yog‘i uchun alohida axborot saqlanadi, kompozit faylda esa rangli tasvir asosiy ranglarga ajratilmagan holda yaxlit bayon qilinadi;

4) chiqarishning imkonli qobiliyati;

5) bosmaning liniaturasi;

6) har bir bo‘yoq uchun rastrning burilish burchagi;

7) rastr nuqtasining shakli;

8) faylga bosmalashda ajratishlarni yoqish/o‘chirish;

9) vertikal va gorizontal bo‘yicha aks ettirish. Agar nashr ofset usulida bosilishi kerak bo‘lsa, fotoqolip ko‘zguli ko‘rinishda chiqarilishi kerak, ya’ni gorizontal bo‘yicha aks ettiriladi. Buning sababi shuki, qolip tayyorlash jarayonlarida fotoqolipning emulsiya qatlami to‘g‘ri shakldagi qattiq rastr nuqtasini olish uchun qolip plastinasining qatlami bilan kontaktda bo‘lishi kerak. Aks holda fotoqolipning tagligi bo‘yicha yorug‘likning yoyilishi va rastr nuqtasining buzilishi yuzaga kelishi mumkin;

10) negativ chiqarish;

11) overprint yoki ustidan qora bo‘yoq bilan bosish. Qora bo‘yoq rangli bo‘yoqlarning ustidan bosiladi, ya’ni uning ostida oraliqlarga ega bo‘magan rangli tasvir hosil qilinadi, tegishlicha rangli fotoqoliplarda bu joylarda oraliqlar qolmaydi.

12) PostScript tili versiyasi.

4-7-bandlarning parametrlari tanlanishi mumkin, lekin ular ranglarga ajratish va PostScript-faylni yozish natijasiga ta’sir qilmaydi. Mazkur axborotdan ma’lumotlarni taglikka chiqarishda foydalaniladi.

Rastrlash va ma’lumotlarni taglikka chiqarish jarayonlari tegishli qurilmaning dasturli va apparatli ta’minoti bilan amalga oshiriladi. Rastrlash jarayonining sozlamalari:

- qorani generatsiya qilish usuli;
- qora bo‘yoqning maksimal miqdori;
- bo‘yoqlarning umumiy yig‘indisi;

- trepping yoki avtokengaytirish – bosishda bo‘yoqlarning moslashmasligini kompensatsiya qilish uchun yonma-yon rangli sohalarni majburiy tarzda bir-biri bilan berkitish;

- overprint;
- negativ chiqarish;
- vertikal va gorizontal bo‘yicha aks ettirish;
- tasvirni burish burchagi;
- tasvirlarni chiqarish masshtabi;

- rastrlash opsiyalari: bosmaning liniaturasi, har bir bo‘yoq uchun rastrning burilish burchagi, rastr nuqtasining shakli, chiqarishning imkonli qobiliyati, u quyidagi formula orqali liniatura bilan bog‘langan:

$$R_{\text{viv}} = L \times n_{\text{m.r.}}$$

bu yerda R_{viv} – chiqarish qurilmasining imkonli qobiliyati (FNA), dpi; L – bosma uskunasida bosish liniaturasi, lpi; $n_{\text{m.r.}}$ – rastrli element matritsasining bitta qatorida yacheykalar miqdori.

Axborot taglikka chiqarilganidan keyin ularga ochiltirish uskunasida ishlov beriladi. Ishlov berishning ikkita usuli mavjud: On-line – ishlov berish uskunasi chiqarish qurilmasi bilan bitta majmuani tashkil qiladi va eksponirlangan material darhol ishlov berishga o‘tadi. Off-line – ishlov berish uskunasi chiqarish qarilmasidan mustaqil tarzda ishlaydi. Eksponirlangan material chiqarish qurilmasidan olinib, qo‘lda ochiltirish qurilmasiga kiritiladi.

Hisoblash qismi

Ma’lumotlarni chiqarish uchun talab qilinadigan chiqarish qurilmalari sonini hisoblash quyidagi formulalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

1. Kitob-jurnal nashrlari uchun rastrlash va tasvir yozish bo‘yicha ishlar hajmi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{\text{kn.-j}} = V_{\text{f.p.chd}} S_{\text{str}} K N$$

Bu yerda $S_{\text{kn.-j}}$ – kitob-jurnal nashrlarida tasvir yozish maydoni, sm^2 ;

$V_{\text{f.p.ch}}$ – nashrning fizik bosma taboqlarda ifodalangan hajmi;

D – nashr ulushiga teskari kattalik, bosma taboqdagi sahifalar soni;

S_{str} – qirqishgacha nashr sahfasining maydoni, sm^2 ;

K – o‘rtacha rangdorlik ((yuza tomoni rangdorligi + orqa tomon rangdorligi) / 2);

N – 1 oydagи nashrlar soni.

Varaqli mahsulotlar uchun quyidagi formuladan foydalilanildi:

$$S_{\text{list}} S e_d M_{\text{ekz}} K_{\Sigma} N$$

Bu yerda S_{list} – varaqli mahsulot qolipining maydoni, sm^2 ; S_{ed} – mahsulot birligi maydoni, sm^2 ; M_{ekz} – bosma taboqda mahsulotning bir xil nusxalari soni. K_{Σ} – umumiy rangdorlik (yuza tomoni rangdorligi + orqa tomoni rangdorligi); $N - 1$ oydagি nashrlar soni.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Bosma qolip chiqarish bo‘yicha yuklama

Ko‘rsatkich	Variant			
	1	2	3	4
Kitob-jurnal nashrlari	Jurnal	Kitob	Broshyura	Kitob
1 oydagи nashrlar soni	15	24	30	20
Format	60x84/16	84x108/32	70x90/8	70x100/16
Hajm, f.b.t.	10	12	8	14
Rangdorlik	4+4	4+4	4+4	1+1
	5	6	7	8
Varaqli nashr	Tashrifnama	Etiketka	Disk muq.	Varaqa
1 oydagи nashrlar soni	10	10	10	20
O‘lchami	5x9	10x12	12x12	21x29,7
Rangdorligi	4+0	4+4	4+1	4+0

Ish natijalarinining tahlili

Laboratoriya ishi hisobotida ishning amaliy topshiriqlari bajarilgan usullar bayon qilinishi, shuningdek, bosma qolip tayyorlash bo‘yicha korxonaning rejali yuklamasini bajarish uchun zarur uskuna va materiallar miqdori hisobi keltirilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Ranglarga ajratishning turlari va ularning vazifasini tushuntiring.
2. Ranglarga ajratishning alohida holatlari haqida ma’lumot bering.
3. Grafik muharrirda ranglarga ajratishda ishlarning ketma-ketligi.
4. Ma’lumotlarni taglikka chiqarishda qanday standart nazorat belgi va shkalalari ishlatiladi va ularning vazifalari nimadan iborat?
5. Rastrlashning qanday usullari mavjud?
6. Qolip materiallariga tasfir yozishning qanday uskunalari mavjud?

2-Amaliy mashg‘ulot:

TEKIS, OFSET VA CHUQUR BOSMA USULIDA QOLIP TAYYORLASH UCHUN JIHOZLAR

Bosishgacha bo‘gan jaaryonlarning asosiy uskunalari. Ofset bosma qoliplari uchun rekorderlarning tuzilishi va turlari. Chuqur bosma qoliplarini elektron yozish qurilmalari.

Ishning maqsadi: CtP texnologiyasi uskunalari – rekorderlarning turlari, tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Trendsetter rekorderining tuzilishini o’rganish.
 - a) Optik boshcha elementlarini o’rganish;
 - b) Plastinani harakatlantirish mexanizmini o’rganish;
 - c) Boshqaruv paneli elementlarini o’rganish;
 - d) Rekorderlarning ko’rsatkichlarini o’rganish.
2. Rekorderning plastinani kiritish stoliga termoplastinani joylashtirish.
3. Plastina rekorderning ichki barabaniga joylashadi.
4. Plastinaga tasvir yozish rejimlarini aniqlash: rastr liniaturasi, lazer nuri intensivligi va b.
5. Rastrlash prosessori orqali plastinaga tasvir yozishga buyruq berish.
6. Tasvir yozilgan plastinani rekorderdan chiqarib olish.

Laboratoriya ishi kafedraning o’quv-ilmiy markazida bajariladi. Ishni bajarishni boshlashdan oldin o’qituvchi yoki o’quv-ilmiy markaz xodimi talabalarini rekorderlar haqida umumiy ma’lumotlar hamda bevosita laboratoriya ishida foydalanilayotgan rekorderning tuzilishi bilan tanishtiradi. Talabalar rekorder dasturi bilan tanishib chiqadilar.

Laboratoriya mashg’ulotiga kerak bo’ladigan jihozlar

1. Trendsetter rekorderi,
2. Termoplastina.

Umumiylumotlar

CtP texnologiyasi tasvir u yoki bu usulda qolip plastinasi yuzasida bevosita kompyuterdan olinadigan raqamli ma’lumotlar asosida hosil qilinadigan bosma qolip tayyorlash usulidir. Bunda fotoqolip, reproduksiyalanadigan asl nusxa-maket va montajlar kabi oraliq yarimmahsulotlar ishlatilmaydi. CtP texnologiyasida tasvir yozish jarayoni bir nurli yoki ko’p nurli skanerlash orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiya qo’llanilishi tufayli nuqtalarning aniqligi yuqori, rastr o’lchamlarining o’zgarishri kam va bosma qolip tayyorlash jarayoniga kam vaqt sarflanishi bilan bir qatorda bosma uskunasidagi tayyorlov ishlari ham tezroq bajriladi.

CtP ning zamonaviy tizimlarida ofset, fotopolimer qoliplar tayyorlashda lazerli rekorderlarning uch asosiy turi qo'llaniladi:

1) tashqi barabanli, bunda qolip plastinasi aylanuvchi silindrning tashqi yuzasida joylashadi;

2) ichki barabanli, bunda qolip plastinasi harakatsiz silindrning ichki yuzasida joylashadi;

3) planshetli, bunda qolip plastinasi gorizotal tekislikda harakatsiz yoki tasvirni yozish yo'nalishiga perpendikulyar ravishda harakatlanadigan bo'lib joylashadi.


Bugungi kunda CtP texnologiyasida ofset (negativ) va fotopolimer qoliplarni tayyorlovchi lazerli rekorderlardan tashqari UB nurlanishli rekorderlar ham ishlataladi. Bu rekorderlar CtP texnologiyasi uchun yaratilgan maxsus plastinalarni emas, balki an'anaviy yorug'likka sezgir plastinalarni eksponirlashga mo'ljallangan.

UB nurlanishli rekorderlarda qolip plastinasi to'lqin uzunligi 360 dan 450 nm gacha bo'lgan ultrabinafsha diapazonda yorug'lik nurlantiruvchi quvvatlari yordamida eksponirlanadi. Rekorderlar tekis yuzada eksponirlashga mo'ljallangan. Plastina vakuum stolda joylashadi hamda yozuvchi boshcha tekislikda ikkita koordinata boyicha ilgarilama-qaytma harakat qiladi.

Rekorderning asosi optik-mexanik tizim bo'lib, u tuzilishga bog'liq holda bir yoki bir necha lazer, modulyator, teleskop, fokuslovchi linza, aylantiruvchi ko'zgular, aylanuvchi ko'zgusimon deflektor, qolip plastinasini mahkamlash va harakatlantirish mexanizmi, optik yoki termik boshchani harakatlantirish mexanizmidan tashkil topadi.


1-rasmida tashqi barabanli rekorderning lazerli skanerlash qurilmasi keltirilgan. Qurilma quyidagicha ishlaydi. Stanina 14 ga o'rnatilgan baraban 15 ga qolip plastinasi 16 mahkamlanadi. Baraban yuritma mexanizmi 13 orqali doimiy tok elektrodvigateli 12 yordamida aylanadi. Baraban 15 bilan bir valda burchak ko'chishlarini raqamli kodga aylantirib beruvchi optoelektron o'zgartirgich 11 joylashgan. Staninada baraban yasovchisi boylab vint 9 o'rnatilgan va uning valiga qadamli elektrodvigatel 10 ulangan. Qadamli elektrodvigatel 10 ishlaganda vint 9 aylanadi va buning hisobiga fokuslovchi linza 6 va ko'zgu 3 dan tashkil topgan yozuvchi boshchali karetka 7 baraban yasovchisi boylab harakatlanadi. Yorug'lik manbai sifatida YAG lazeridan foydalaniladi. Uning to'lqin uzunligi 1,064 nm va spektrning IQ diapazonida ishlaydi hamda u sovutish tizimi 8 bilan jihozlangan. Lazer nuri akustooptik modulyator 2 yordamida modullanadi va keyin ko'zgu 3, diafragma 4, teleskop 5 tizimi orqali linza 6 ga kelib tushadi. Linza nurni aylanuvchi baraban 15 ga mahkamlangan plastina yuzasiga kichik o'lchamli dog'

ko'inishida fokuslaydi. Qator boyicha yoyish barabanning aylanishida amalga oshadi. Kadr boyicha yoyish esa vint 9 aylanganda yozish boshchasi karetkasi 7 ning harakatlanishi hisobiga amalga oshadi.



1-rasm. Tashqi barabanli rekorderning lazerli skanerlash qurilmasi

Bosma nashrlari katta adadlarda ishlab chiqariladigan yirik bosmaxonalarda Platesetter 3244 kabi yuqori talablarga javob beradigan rekorderlar qo'llaniladi. Bu rekorder 432x559 va 813x1118 mm o'lchamli plastinalarda tasvir hosil qila oladi.



2-rasm. Platesetter 3244 rekorderning tuzilishi

2-rasmda ushbu rekorderning tuzilishi keltirilgan. Rekorder yoziladigan tasvir haqidagi ma'lumotlarni Allegro RIP 1 dan oladi. Bunda plastinalarning rekorderda aniq joylashishi ekran 3 da namoyon bo'ladi. Qolip plastinalari transport konteyneri 2 ga yuklanadi. Rekorder o'ziga turli o'lcham va turdag'i 600 ta qolip plastinasiga ega oltita kasseta 4 ni joylashtirishi mumkin. Termoboshcha 5 tashqi baraban 11 ga mahkamlangan plastinani eksponirlaydi. Ikkitali ushlagich 6 lar 30 s ichida barabanni yuklaydi va bo'shatadi. Ikkita ulangan avtomatik prosessorlar 10 konveyerdan plastina kelganida bir vaqtning o'zida ishlashi

mumkin. Prosessorga ulangan chiqarish qurilmasi 9 qolip plastinalarini qabul qilish bo'limi 8 ga o'tkazishni ta'minlaydi.

Ish natijalarinining tahlili

1. Ish bajarish tartibi.
2. Rekorderning optik qismi va texnologik shaklini keltiring.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish uslubiyati.

Nazorat savollari

1. Rekorderlar klassifikatsiyasi qanday?
2. Rekorderlar qanday tuzilgan?
3. Rekorderlarda qanday yorug'lik manbalari ishlataladi?
4. Rekorderlar qanday prinsipda ishlaydi?

3-Amaliy mashg'ulot:

FLEKSOGRAFIK BOSMA QOLIP TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Fleksografik bosma qoliplarining xususiyatlari. Computer-to-Flexo texnologiyasi. Fleksografik bosma jarayonining o'ziga xosliklari. Jihozlarning tuzilishi va ishlash prinsipi.

Ishning maqsadi: Fleksografik bosma qoliplarini tayyorlash uskunalarining tuzilishi va ish prinsipi bilan tanishish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Fleksografik bosma qoliplarini lazerli yozish va ochiltirish uskunalarining tuzilishini diqqat bilan o'rganish.
 - a) Uskunaning lazerli yozish tizimi mexanizmlarini o'rganish;
 - b) Uskunaning ishlov berish seksiyalari mexanizmlari va detallarini o'rganish;
2. Uskunani ishga tushirish va turli fotopolimer plastinalarda bosma qoliplarini yozish.
3. Tayyor bo'lgan bosma qolipni qabul qilish va nazoratdan o'tkazish.

Laboratoriya ishi kafedraning o'quv markazida bajariladi. Ishni bajarishni boshlashdan oldin o'qituvchi yoki o'quv markazi xodimi talabalarni uskuna haqida umumiy ma'lumotlar hamda bevosita laboratoriya ishida foydalanilayotgan uskunaning tuzilishi bilan tanishtiradi. Shundan so'ng talabalar fleksografik bosma qoliplarini tayyorlash uskunasini o'rganish jarayonini amalga oshiradilar.

Laboratoriya mashg'ulotiga kerak bo'ladigan jihozlar

1. Fleksografik bosma plastinalariga tasvir yozish uskunasi,
2. Fotopolimer plastinalarni ochiltirish uskunasi,
3. Turli nazorat vositalari.

Umumiy ma'lumotlar


Metall galogen yoritgichga ega eksponirlovchi qurilmalar yuqori unumdoorlikdagi uskunalar bo'lib, yirik matbaa korxonalarida ham QFK dan, ham SFQ dan FBQ tayyorlash uchun qo'llaniladi.

Metall galogen yorug'lik manbaiga ega eksponirlash qurilmasining printsipial shakli 1-rasmida keltirilgan.

Bu qurilma gorizontal stolda joylashgan fotopolimer plastinalarni stol ustida joylashgan nuqtadi UB-nurlanish manbai yordamida eksponirlaydi. Stanina 1 uskunaning assosi bo'lib, barcha bo'g'inlar va qurilmalar unga mahkamlanadi. U to'g'ri burchakli karkas ko'rinishidagi payvandlangan konstruktsiya bo'lib, kvadrat qirqimli bo'sh tanali profillardan tayyorlangan. Karkas barcha tomonidan devorlarni hosil qiluvchi varaqli to'siqlar bilan berkitilgan.

Stol 2 fotopolimer plastina va fotoqlipni qo'yish va mahkamlashga mo'ljallangan. Plastina va fotoqolip vakuumli tizim yordamida mahkamlanadi. Buning uchun stolning ishchi yuzasida vakuum tizimi bilan ulangan ariqchalar va teshiklar mavjud.

Plastina va fotoqlip qo'yilganda stol 2 oldinga siljiydi. Stolning harakatlanishida uning roliklari dastlab yo'naltiruvchi plankalarning ariqchalari bo'ylab siljiydi, keyin ariqchalarning oxiriga yetib, plankalarni o'zi bilan tortadi.



1-rasm. Metall galogen yorug'lik manbaiga ega eksponirlash qurilmasining printsipial shakli

Plastina va fotoqolip yuzasiga qoplama plynka 3 qo'yiladi. U stol 2 ning orqa tomonidan o'natilgan valik 12 ga mahkamlangan. Plenkaning old chekkasi stol 2 ning chekkalari bo'yicha mahkamlanadigan valika o'raladi. Plyonka stolning butun foydali o'lchamini qoplaydi.

Qurilmaning tepe qismida nurlantiruvchi 5 mavjud bo'lib, u fotoqolipga ega fotopolimer plastinasiga yo'naltiriladigan aktinik nurlanish hosil qilish uchun xizmat qiladi. Zatvor 6 nurlantiruvchini ikki qismga bo'ladi va sharnirli parallelogrammaga mahkamlangan ikkita shtorkadan tashkil topadi. Zatvor mexanizmi maxsus yuritma orqali elektrodvigatel 11 dan harakatga keltiriladi.

Nurlantiruvchining tepe qismida lampa 7 joylashgan, uning ustida ko'zguli qaytargich mavjud. Yoritgichda maxsus qurilma 10 ga ega ventilyator 9 o'rnatilgan, u elektromagnitdan yuritma oladi. Ventilyator 9 lampa 7 ni sovutishga mo'ljallangan.

Bevosita stol 2 ustida qaytaruvchi ekranlar 4 joylashgan bo'lib, ular stol yuzasining bir tekis yoritilishini ta'minlaydi vash u bilan bir vaqtda qurilmaning yon devorlari qizishini kamaytiradi.

Qurilmaning pastki qismida stol ostida elektr qurilmalari va vakuum tizimi 14 joylashgan. Qoplash plynkasi, fotoqlip va polimer plastinani sovutishga mo'ljallangan purkagichli ventilyator 13 ham shu yerda joylashgan. FBQ yuzasidagi harorat 40 °C dan oshmasligi lozim. Stolning yuzi pastki tomondan individual ventilyator bilan sovutiladi.

Qoplash plynkasi va FBQ ni stol yuzasiga zinch bosish vakuum yordamida ta'minlanadi. Vakuum tizimi 14 vakuum nasosi N, ikkita resiver RS1 va RS2, uchta elektromagnit havo taqsimlagich R1, R2 va R3, ikkita bosim relesi RD1 va RD2, vakuummetr V va pnevmatik stol 2 dan tashkil topadi.

Vakuum tizimi ikki bosqichli vakuum yig'ishni ta'minlaydi, bu esa operator tomonidan fotopolimer plastinalarni (FPP), fotoqlip va plenkalarni tayyorlashda qulaylik yaratadi va ular stol yuzasiga zinch bosilishini kafolatlaydi.


Vakuum tizimi quyidagi tarzda ishlaydi. Ish boshlashdan oldin vakuum nasosi N ishga tushiriladi, resiver RS2 da 0,06 MPa dan kam bo'limgan bosim hosil qilinadi. Vakuum qurilmaning butun ishi davomida bosim relesi RD2 yordamida ushlab turiladi.

Stolga FPP, fotoqlip qo'yilganidan va fotoplyonka yoyilganidan keyin vakuumning birinchi darjasini ishga tushiriladi. Elektromagnit havo taqsimlagichlar R1 va R2 ishga tushiriladi, natijada stol 2 ning tekisligi resiver RS1 bilan va bir vaqning o'zida atmosferadan uziladi. Havo taqsimlagich R2 resiverlar RS1 va RS2 ni birlashtiradi.

Vakuumning birinchi darajasida polietilen plyonka tekislanadi va uning tagidagi haov pufakchalari qo‘lda chiqarib yuboriladi. Plnshnka tekislangandan keyin vakuumning ikkinchi darjasasi ishga tushiriladi. Bunda havo taqsimlagich R3 ishga tushiriladi va resiver RS2 stol tekisligi bilan ulanadi. Rele RD1 havo taqsimlagich R2 ning elektromagnitishi boshqaradi, u 0,02-003 MPa bosimga sozlangan. Stol 2 tekisligida 0,03 MPa ga teng bo‘lgan zaryadsizlanishga erishilganda havo taqsimlagich R1 o‘chiriladi, 0,02 Mpa zaryadsizlanishda yoqiladi.

Nusxa ko‘chirish tugagandan keyin «Sbros» yoqiladi va stol tekisligi atmosferaga ulanadi, qurilmalarning barchasi boshlang’ich hoatga keltiriladi. Eksponirlash vaqtini sozlash ikkita – asosiy va qo‘shimcha vaqt relesi yordamida amalga oshiriladi. Eksponirlash pasaytirilgan quvvatda (navbatchi rejim) va nominal quvvatda (ishchi rejim) amalga oshirilishi mumkin. Ekspozitsiya rejimi maxsus moslama yordamida tanlanadi.

Zamonaviy yuqori va fleksografik bosmada fotopolimer bosma qoliplaridan (FBQ) foydalaniladi. Ular bosma-texnik v reproduktsion xossalari bo‘yicha ofset qoliplaridan qolishmaydi, adadga chidamlilik bo‘yicha ularni ortda qoldiradi. Yuqori va fleksografik bosma fotopolimer qolipining tuzilish 24-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Fotopolimer qoliplarning tuzilishi

a - yuqori bosma uchun; b - fleksografik bosma uchun


Fotopolimer nusxalarga ishlov berish fotopolimerlanuvchi qatlamning eksponirlashda fotopolimerlanmagan maydonlarini yuvish eritmasida ketkazish, quritish va turli vazifali eksponirlashlardan ibrat bo‘ladi. Ba’zida ochiltirishdan keyin fotopolimer qoliplarni yuvish talab qilinadi, fleksografik qoliplarda keyingi ishlov berish (yopishqoqlikni ketkazish) ham talab qilinadi.

FBQ larga ishlov berish (ochiltirish) protsessori ikkita turga bo‘linadi: oldindan bukilgan plastinalarni ochiltirish uchun va tekis plastinalarni ochiltirish uchun. Birinchi turdagи protsessorlar siklik harakatli uskunalar hisoblanib, ularda plastina ochiltiriladi, keyin yuviladi, shundan so‘ng protsessorga navbatdagi plastina kiritiladi. Ikkinchi turdagи protsessorlar aksariyat hollarda oqim tizimi bo‘lib, ularda

plastinalarni kiritish va ishlov berish konveyerli usulda amalga oshiriladi. Bir yoki bir necha plastinalarga ishlov berilayotgan vaqtdagi navbatdagi plastina protsessorga kiritiladi.

Ochiltirish protsessorining asosiy bo‘g’inlari quyidagilardan iborat: vanna, eritma uzatish tizimi, termostatlash tizimi, plastina ushlagich (birinchi turdag'i uskunalar uchun) va harakatlantirish qurilmasi (oqimli harakat printsipidagi uskunalar uchun). Oqimli harakat printsipidagi uskunalarda nafaqat ochiltirish, balqi quritish va oldindan eksponirlash ishlari ham amalga oshiriladi.

Oldindan bukilgan FBQ ga ishlov berish uchun mo‘ljallangan protsessorning ish printsipi 3-rasmida keltirilgan. Unda ochiltirish suyuqlikni yuqori bosimda purkash yo‘li bilan amalga oshiriladi.




3-rasm. Oldindan bukilgan FBQ ni ochiltirish protsessori

Protsessorda vanna 1 mavjud bo‘lib, unda gorizontal o‘q atrofida aylanuvchi plastina ushlagich 2 o‘rnatalgan. Plastina ushlagichga mexanik qisqichlar bilan mahkamlangan qolip plastinasi yuzasidan 100 mm masofada forsunkalar 3 o‘rnatalgan. Plastina ushlagich 2 chervyakli reduktor 5 va maxsus mufta 6 orqali elektrodvigatel 4 dan aylanma harakat oladi. FBQ oraliq elementlarini yuvish ishqorli eritma oqimi yordamida amalga oshiriladi. Eritma nasos 7 orqali forsunkalar 3 dan beriladi. FBQ ni yuvish tugaganidan keyin ishlatilgan eritma nasos 7 yordamida vannadan chiqarib yuboriladi. Kran 8 va elektromagnit ventil 9 vanna 1 ni vodoprovod subi bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Ishchi eritma bevosita vannada tayyorlanadi. Dozator 10 vannaga kontsentrlangan ishqor eritmasining ma’lum dozasini beradi. Undagi suvning darajasi daraja regulyatori 11 yordamida nazorat qilinadi. Kontaktsiz datchiklar 12, 13, 14 uskunaning elektrosxemasiga teigshi operatsiyalarni bajarish buyruqlarini beradi: 12 – eritma vanna 1 dan ketkazilgandan

keyin nasos 7 ni o‘chirish va suv berish ventili 9 ni ishga tushirish uchun; 13 – suvning o‘rtacha darajasiga erishilganda elektrda qizdiriladigan vanna 1 ni ishga tushirish uchun; 14 – vanna yuqori darajagacha suv bilan to‘lganda ventil 9 ni berkitish uchun. Elektromagnit ventillar 15, 16 tegishli ravishda eritmaning nasos 7 dan forsunkalar 3 ga berilishini va ishlatilgan eritmaning kanalizatsiyaga quyilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Nasosga begona predmetlarning tushishini oldini olish uchun filtr 17 o‘rnataligan.

Oldindan bukilgan plastinalarga ishlov berish protsessorlarida ochiltirish past bosimli oqim va mexanik cho‘tkalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunday qurilmaning namunasi 4-rasmida keltirilgan. Bu qurilma fleksografik fotopolimer nusxalarni ochiltirish va keyingi ishlov berishni yoki yuqori bosma qoliplarini tayyorlashda fotopolimer nusxalarni ochiltirish va yuvishni ta’minlaydi.



4-rasm. Fleksografik va yuqori bosma uchun FBQ ga ishlov berish protsessori

Fleksografik nusxalarga ishlov berishda o‘tkazish trubalarini taqsimlash shlanglar 7 yordamida amalga oshirilishi lozim. Shlanglar shaklda sidirg‘a chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Bloklar 8 va 21 o‘chirib qo‘yilgan, tegishli ventil va taqsimlash patrubkalari berkitilgan. Eritma o‘tkazish trubkasi 12 orqali regeneratsion qurilmada joylashgan alohida idishdan uzatiladi. Bu rejimda qurilmada ishlash quyidagi tarzda amalga oshadi.

Operator boshqaruv pultidan uskunaning ta’mintonini ishga tushiradi va fleksografik nusxalarga ishlov berish rejimini tanlaydi: ochiltirish va yuvish vaqtি relesini sozlaydi, nasoslarning ish rejimini belgilaydi, qopqoq 2 ni ochadi, vanna 7 da eritmaning mavjudligini tekshiradi, patrubkalar 18 orqali stanina 6 bilan ulangan so‘rib olish ventilyatsiyasi tizimi ishini tekshiradi. Keyin boshqaruv pultida maxsus tugmachani bosib, nusxani silindr 4 qisqichlariga mahkamlaydi. Shundan so‘ng operator sozlovchi maxovik yordamida blok cho‘tkasi 3 va silindr 4 o‘rtasidagi

zaruriy tortilishni ta'minlaydi. Bu uskunani ishga tayyorlashda yakuniy operatsiya hisoblanadi.

Shundan so'ng operator boshqaruv pultida uskunaning ish siklini ishga tushirish tugmachasini bosadi, u avtomatik ravishda ochiltirish va yuvish ishlarini bajaradi. Bunda eritmani o'tkazuvchi trubalar 17 bo'yicha uzatadigan nasos 15 va 16 ishga tushadi; silindr 4 ni va cho'tkali blok 3 cho'tkalarini aylantirish yuritmalari ishga tushadi. Ochiltirish operatsiyasi tugagandan keyin cho'tkalar yuritmasi avtomatik o'chadi va nusxani yuvish operatsiyasi boshlanadi. Ortiqcha eritma vanna 7 ning quyib yuborshi patrubkasi 5 orqali yig'uvchi bak 10 ga oqib tushadi. Ishlov berish sikli tugagandan keyin uskunaning barcha mexinazmlari o'chiriladi va tovushli signal beriladi.

Operator qopqoq 2 ni ochadi va ishlov berilgan nusxani silindr 4 qisqichlaridan bo'shatadi. Buning uchun siltash tugmachasidan foydalanadi.

Alohida qurilmada qolip quritilgandan keyin operator, agar talab qilinsa, kyuvet 20 dan foydalanib qolipga keyingi ishlov berishni amalga oshirishi mumkin. Buning uchun u kyuveta 20 dan qopqoq 24 ni chiqarib oladi, unga qisqichlar 23 yordamida nusxa 22 ni (bir yoki ikkita) mahkamlaydi, uni kyuvetadagi eritmaga tushiradi va keyingi ishlov berish vaqtini relesini ishga tushiradi. Tovushli signal opreatorni keyingi ishlov berish operatsiyasi tugaganligi haqida xabardor qiladi. Operator tayyor qolipni kyuvetadan chiqarib oladi.

Yuqori bosma uchun fotopolimer nusxalarga ishlov berishda o'tkazuvchi trubkalarni taqsimlash shakldagi punktir chiziqlarda ko'rsatilgandek bo'lishi lozim. Eritma uzatish tizimining erkin patrubkalari o'chirilgan bo'lishi, ventil 19 berkitilgan bo'lishi lozim. Uskunani ishga tayyorlashda operator yig'uvchi bak 10 ni eritma bilan to'ldiradi. Buning uchun sovuq suv va issiq suv uzatish uchun tayyorlash bloki 8 dan foydalanadi va qo'lda kontsentrlangan ishqor eritmasini qo'shadi. Keyin yuvish bloki 21 ni ma'lum miqdorda suv uzatishga sozlaydi. Blok 21 da suv uzatish moslamasi bilan birga mavjud bo'lgan sarflashni o'lcham moslamasida suv sarfini nazorat qiladi.

Bu operatsiya amalga oshirilgandan keyin uskuna ishga tayyor bo'ladi. Nusxani silindrga mahkamlash, ochiltirish va yuvish rejimlarini tanlash, uskunani ishga tushirish va ochiltirish fleksografik nusxalarga ishlov berish bilan bir xil amalga oshiriladi.

Nusxalarni ochiltirish operatsiyasi tugaganidan keyin nasoslar 15 va 16, cho'tkali bo'g'in 3 ning cho'ttkalar yuritmasi avtomatik o'chadi va suvni blok 21 ga uzatish moslamasi ishga tushadi. Dush hosil qiluvchi trubka 1 ga kelayotgan suv nusxani yuvadi. Ochiltirish eritmasi va yuvish suvining ortiqcha qismi quyib

yuborish patrubkasi 5 orqali o‘tkazish trubalari 13 bo‘ylab kanalizatsiya trubasi 14 ga quyib yuboriladi.

Nusxalarga ishlov berish sikli tugaganidan keyin uskunaning barcha mexanizmlari o‘chadi, tovushli signal beriladi va operator nusxani chiqarib oladi.

Keyingi ishlov berish kyuvetasi 20 (eritmasiz holda) tayyor qo‘plash yoki ishlov berilishi lozim bo‘lgan nusxalarni saqlash uchun foydalanimi mumkin.

Uskunada bloklash tizimlari mavjud bo‘lib, qopqoq 2 ochiq bo‘lganda uskunani ishga tushirish va o‘chirish va yig’uvchi bak 10 ni mayordan ortiq to‘ldirib yuborishga to‘sinqilik qiladi. Bu bloklash tizimlari siltashli tugmachalarga bosganda silindr 4 ning aylanishiga to‘sinqilik qilmasligi lozim. Ventillar 9 va 11 vanna 7 va yig’uvchi bak 10 ni tozalashda eritmani to‘liq oqizib yuborishga xizmat qiladi. Bug’larni so‘rib olish umumtsex ventilyatsiya tizimidan patrubkalar 18 ga ulanadigan egiluvchan shlang yordamida amalga oshiriladi. Bug’lar uskunaning ichki fazosidan va qopqoq 2 hamda vanna 7 orasida hosil bo‘ladigan fazodan tirkishlar orqali so‘rib olinadi.

Uskunada bir vaqtda bir yoki ikki nusxaga ishlov berish mumkin. Buning uchun uzunligi 960 mm, ichki diametri 20 mm bo‘lgan dush hosil qiluvchi trubka 1 butun trubka bo‘ylab 20-25 mm qadamda 2-3 mm diametrli teshiklarga ega. Dush hosil qiluvchi trubka 3 qismga bo‘lingan: markaziy va ikkita yon. Markaziy qismining uzunligi nusxaning maksimal eniga mos keladi (450 mm). Bitta nusxaga ishlov berishda u silindr 4 da uning markaziy qismiga mahkamlanadi. Ochiltirish va yuvish eritmalarini bita nasosdan beriladi. Ikkita nusxaga ishlov berishda ular silindr 4 da yonma-yon joylashtiriladi. Bunda eritmalar ikkita nasos 15 va 16 dan beriladi. Ulardan biri eritmani dush hosil qilish trubkasi 1 nig markaziy qismiga, ikkinchisi ikkita yon qismlariga beradi. Yuqori bosma uchun mo‘ljallangan plastinada bita nusxaga ishlov berishda suv bilan yuvish uchun blok 21 ni dush hosil qiluvchi trubka bilan ulovchi o‘tkazish trubkalarining biri o‘chirib qo‘yiladi.

Ish natijalarinining tahlili

1. Chuqr bosma qoliplarini tayyorlash uskunasining texnologik shaklini keltiring.
2. Olingan natijalarni tahlil qilish uslubiyati.

Nazorat savollari

1. Oldindan bukilgan FBQ ga ishlov berish protsessori qanday tuzilgan?
2. Fotopolimer plastinalar qanday tuzilishga ega?
3. Ochiltirish protsessorlarining qanday variantlari mavjud?
4. Magnitli harakatlantirish qurilmasiga ega ochiltirish protsessori qanday tuzilgan?
5. SFK asosidagi FBQ larga ishlov berish protsessori qanday printsipda ishlaydi?
6. Aylanuvchi magnitli roliklar asosidagi harakatlantirish qurilmasiga ega bo‘lgan FBQ ga ishlov berish oqim tizimi qanday printsipda ishlaydi?

4-Amaliy mashg‘ulot:

BOSMA QOLIPNI NAZORATI UCHUN TEXNIK VOSITALAR

Bosma qoliplariga qo‘yiladigan talablar va ularning adadga chidamliligi. Bosma qoliplarini nazorat qilishda densitometrik vositalar. Qoliplarni tayyorlashda svetoproba jarayonlari.

1. Ishning maqsadi:

Ofset bosma qoliplarini tayyorlashda qo‘llaniladigan densitometrlar va spektrodensitometrlarning o‘lchash imkoniyatlari bilan tanishish.

2. Ishning tarkibi:

1. Densitometrlarning xususiyatlari bilan tanishib tahlil qilish.
2. Spektrofotometrlar va spektrodensitometrlar turlari vazifalari bilan tanishish, ularning nusxa qabul qilish xususiyatlarini o‘rganish.

Laboratoriya mashg‘ulotiga kerak bo‘ladigan jihozlar:

Densitometr va spektrodensitometrlar.

Laboratoriya mashg‘uloti uchun xom-ashyo materiallar:

Fotoplyonka turlari, qolip turlari, astrolon, qaychi, texnik spirt, vata, lupa, kimyoviy reaktivlar va qo‘srimcha materiallar.

Umumiy ma’lumotlar:

Bugungi kunda, bosma mahsulot chiqarish turlari ko‘pligiga qaramay, tekis ofset bosma usuli yetakchi bo‘lib qolmoqda. Bu avvalambor yuqori imkonlilik qobiliyatiga ega bo‘lgan tasvirni aks ettirish hisobiga yuqori sifatli bosma nusxalar olish va tasvirning istalgan joylarining sifati bir xil chiqayotgani; tayyorlash jarayonini avtomatlashtirishga imkon beruvchi bosma qoliplarni olish imkoniyati; bosma qoliplarning kichik massasi; qoliplar narxining nisbatan arzonligi bilan bog‘liq.


Ofset bosma texnologiyasining eng muhim elementi – bosma qolipdir, u so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlarga uchradi. Asboblar yordamida nazorat qilish borasida eng ko‘p tarqalgan usullardan biri densitometrik usuldir. U densitometrlar, spektrofotometrlar va spektrodensitometrlar yordamida o‘tkaziladi hamda reproduksiyalashning barcha bosqichlarida-asl nusxadan tortib to bosma nusxaga qadar jarayonlarda qo‘llanadi

Vizual nazorat chog‘ida kulrang tondagi rang va rang turlari sub’ektiv qabul qilinadi. Bir rangning o‘zini, ruhiy holati, tajribasi, atrof-muhit, maqsadlari va yoshiga qarab, har bir kishi o‘zicha qabul qiladi. Densitometrik o‘lchovlarda barcha ko‘rsatkichlarga xolis baho beriladi. Ammo, texnologik jarayonning barcha bosqichlarida konstruktiv xususiyatlar (filtrlar, diafragma, yorug‘lik manbalari,

o‘lchanadigan yorug‘lik oqimlarini o‘zgartirish prinsiplari) ning ehtimolli ta’sirini kamaytirish uchun, bir ishlab chiqaruvchining densitometrlarini qo’llagan ma’qul.

Densitometrlar. Yarim tonli va rastrl negativlar, diapozitivlar, slaydlar, rangli va oq-qora asl nusxalar hamda bosma nusxalarning sifatini xolis baholash uchun qo’llanadigan optik-elektron moslamalar densitometrlar deb ataladi.

Bu moslamalarning nomlari density-zichlik so‘zidan yasalganiga qaramay, ular namuna orqali aks etgan yoki o‘tgan nur miqdorini o‘lchab, ana shu qiymatga qarab optik zichlikni hisoblab chiqishadi.




1-rasm. Densitometrlarning umumiy ko‘rinishlari

Bu borada, agar ko‘p bo‘yoqli bosma nusxani o‘lchash kerak bo‘lsa, densitometr yorug‘lik filtrlari yordamida aks etgan nurning ko‘rinadigan spektridan uch zonalardan birini (ko‘k, yashil yoki qizil) ajratib oladi, hamda, shu zonadagi aks etish koeffitsentidan kelib chiqib, tegishli bo‘yoq (sariq, to‘q qizil yoki havo rang) ning optik zichligini hisoblab chiqadi. Optik zichlik (D)-bu shaffof ob’ektlar uchun nurni o‘tkazish va noshaffof ob’ektlar uchun aks ettirish darajasidir. Miqdoran u o‘tkazish (aks etish) koefitssentiga teskari bo‘lgan kattalikning o‘nlik logarifmi sifatida aniqlanadi (*9.1-rasm*).

Matbaa sohasida optik zichlik nashriyotning asl nusxalarini, oraliq tasvirlar (fotoqoliplar) va bosma nusxalarni baholash uchun ishlatiladi.


Densitometrlar tuzilishining ikki sxemasi mavjud: *singib o‘tadigan* nurda ishlaydigan va *aks etgan* nurda ishlaydigan turlari.

Densitometrlar tuzilishining prinsipial sxemalari. Aks etgan nurda ishlaydigan densitometrlarda (*2-rasm*), o‘lchanadigan joy moslamaning o‘zida joylashgan yorug‘lik manbai 1 tomonidan yoritiladi; tushib turuvchi yo‘naltirilgan normallashtirilgan yorug‘lik oqimi 2 bo‘yoq qatlami 3 va noshaffof taglikning 4 yuzaki qatlami orqali o‘tadi. Oqimning bir qismi taglik tomonidan yutiladi, qolgan qismi esa 5 undan aks etadi va yorug‘lik filtridan 6 o‘tib, densitometr qabul qiluvchisiga kelib tushadi.



2-rasm. Aks etgan yorug‘likda ishlaydigan densitometr tuzilishi sxemasi: 1 - yorug‘lik manbai; 2 - tushuvchi normallashtirilgan yorug‘lik; 3 - bo‘yoq qatlami; 4 - noshaffof taglik; 5 - aks etgan yorug‘lik oqimi; 6 - yorug‘lik filtri; 7 - yorug‘lik qabul qiluvchisi.

Tushuvchi va aks etuvchi yorug‘lik nisbatiga ko‘ra densitometr aks etish koefitssentini aniqlaydi va foydalanuvchi tomonidan berilgan ko‘rsatkich (optik zinchlik, rastr elementlarining nisbiy maydoni va hokazolarni) hisoblab chiqadi. Aks etgan yorug‘lik densitometrlari noshaffof taglikda tayyorlangan asl nusxalarini, sinov va adad nusxalarini nazorat qilish uchun ishlatiladi.



3-rasm. Singib o‘tadigan yorug‘likda ishlaydigan densitometr tuzilishi sxemasi: 1 - yorug‘lik manbai; 2 - tushuvchi normallashtirilgan yorug‘lik; 3 - ochiltirilgan fotoqatlam yoki bo‘yoq modda qatlami; 4 - shaffof taglik; 5 - o‘tgan yorug‘lik oqimi; 6 - yorug‘lik qabul qiluvchisi.

Singib o‘tuvchi yorug‘likda ishlaydigan densitometrlarda o‘lchanadigan qism yorug‘lik oqimi 2 bilan yoritiladi, u nafaqat yuzaki qatlam 3, balki taglik 4 orqali ham o‘tadi. Qatlam va taglik o‘tayotgan oqimning bir qismini yutadi, qolgan qismi

esa 5 densitometr qabul qiluvchisiga 6 kelib tushadi. Densitometr namunadan o'tgan nurlarning miqdorini unga tushayotgan nurlar miqdori bilan taqqoslaydi va o'tkazish koefitssentini o'tgan nur oqimining tushuvchi nur oqimiga nisbati sifatida aniqlaydi. O'tkazish densitometrlari shaffof taglikda tayyorlangan asl nusxalarni (slaydlar, negativlar) va fotoqoliplarni nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Bu moslamalardan foydalangan holda, chiqaruv qurilmasini kalibrlash va fotoplyonkalarni eksponatsiya qilish va ochiltirish rejimlarini tanlash mumkin.

Ikkala turdag'i densitometrlar konsepsiyasida nazorat-o'lchov asbobsozligi rivojlanishining barcha tendensiyalari aks etgan:


- mikroprotsessor texnikasidan foydalanish;
- o'lchov natijalarini ekranga chiqarish;
- o'lchovlarni va ularni tez qayta o'zgartirish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- natijalarni grafik shaklda chiqarib berish;
- periferik (boshqaruvchi, hisoblovchi, qayta o'zgartiruvchi, yozuvchi, bosuvchi) qurilmalarga ulash.

Zamonaviy densitometrlar barcha sanab o'tilgan funksiyalar bilan jihozlangan. Ammo turli maqsadlar uchun bu funksiyalar to'plami o'zgarishi mumkin: bosmaxona mutaxassisini uchun optik zichliklar, rastr nuqtalarini kengaytirish, bo'yoqlarni qabul qilish nazorati muhim; texnolog uchun esa, barcha sanab o'tilganlardan tashqari, bo'yoqning qorayishi (rang tozaligi), rang tonidagi xatolar va hokazolar nazorati zarur.

Spektrofotometrlar va spektrodensitometrlar. Optik nurlanishni ifodalaydigan kattaliklarni o'lhash uchun fotometrlar ishlatiladi. Bunday o'lchovlarning prinsipi nurlanish oqimini muayyan maydon bo'yicha cheklashdan va uni berilgan spektral sezgirlikka ega bo'lgan qabul qiluvchida qayd etishdan iborat. Fotometrda qabul qiluvchi sifatida ko'z yoki fizik moslama (datchik) xizmat qilishi mumkin. Tegishli ravishda vizual (ko'radigan) va fizik fotometrlar mavjud. Zamonaviy fotometrlarning konstruksiyalari judayam turli-tuman va asosan ularning belgilangan vazifasiga ko'ra farqlanadi. Misol uchun, yoritilganlik lyuksmetrlar, yorqinlik-eksponometrlar bilan o'lchanadi. Yorug'lik oqimlari, eritmalar, moddalar va bo'yalgan muhitlar (bo'yoqlar, bo'yoq moddalar) ning spektral xususiyatlarini aniqlash uchun, nurlanish (o'tkazish, aks etish) spektri orqali rangni ob'ektiv ravishda miqdoriy baholaydigan spektrofotometrlar ishlatiladi. Taqqoslash uchun: densitometrlar modda orqali o'tgan yoki uning yuzasidan aks etgan yorug'lik oqimining kuchi (quvvati) ni ob'ektiv ravishda miqdoriy baholaydi. Ushbu oqim spektrining kengligi qo'llanadigan yorug'lik filtri bilan aniqlanadi.

Spektrofotometrda ko'rindigan spektr ko'p miqdordagi zonalarga bo'linadi va nurlanish intensivligi ularning har birida o'lchanadi. O'lchov natijasi, masalan,

aks etgan yorug'lik intensivligining to'lqin uzunligiga bog'liqligi jadvali ko'rinishida taqdim etiladi (9.4-rasm).



4-rasm. Spektrofotometrlar. β aks etish koefitssentining spektrofotometrik o'lchovlari sxemasi

IS - yorug'lik manbai, IO - sinalayotgan namuna, SO - taqqoslash namunasi (oq etaloni),

M - monoxromatorning prizmasi, f - fotoelement

Matbaa sohasida spektrofotometrlar stol ustida joylashuvchi noshirlik tizimlarini kalibrlash va bo'yoqlar, qog'oz, yorug'lik filtrlarini ishlab chiqish hamda o'rganishda qo'llanadi.

Ular shuningdek, tegishli dasturiy ta'minot yordamida o'lchangan yorug'lik xossalari yoki uning CIE-Lab, CMYK-yoxud RGB-ekvivalentlarini aniqlash, saqlash va uzatish uchun ishlatiladi. Uni yana, o'z rang profillarini yaratish uchun rangni boshqarish dasturi bilan birgalikda ishlatish mumkin.



5-rasm. Spektrodensitometrning umumiy ko'rinishi

So‘nggi vaqtarda spektrodensitometrlar deb atalgan moslamalar tobora keng tarqalmoqda. Ular spektrofotometr va densitometr imkoniyatlarini bir qurilmada birlashtiradi. O‘z mohiyatiga ko‘ra spektrodensitometrlar-bu spektrofotometrlardir, ammo faqat ularning hisoblash imkoniyatlari kengaytirilgan bo‘ladi. Ular namunaning aks etish (yoki o‘tkazish) spektrini ko‘p miqdordagi zonalar bo‘yicha aniqlashi mumkin.

Shu bilan birga ular, yanada tor zonalarning ko‘p miqdori bo‘yicha o‘lchovlar negizida optik zichlikni to‘lqinlar uzunligining yanada keng intervallarida hisoblab chiqishi mumkin (masalan, spektr uch zonaga bo‘linganda). Ular bosmaoldi va bosma sexlarida, kolorimetrik va test laboratoriylarida bo‘yoqlar aralashuvini va rangni nazorat qilish uchun eng maqbul variantdir.

Ish natijalarining tahlili; xulosani shakillantirish. Ish oxirida talaba quyidagi ishlarni bajarishga jalb etiladi.

1. Har bir talaba bosma densitometrlarda fotoqolip va bosma qoliplarning optic zichliklarini har bir rang uchun tekshirib, ularning xususiyatlari bilan tanishib tahlil qilishi, afzallik va kamchilik tomonlarini izohlash kerak.

1-жадвал

<i>Densitometrlar</i>	<i>Afzalliklar</i>	<i>Kamchiliklar</i>

Nazorat savollari:

1. Densitometrlar tuzilishining prinsipial turlari haqida ma’lumot bering?
2. Spektrofotometrlar va spektrodensitometrlar xususiyatlari haqida ma’lumot bering?

5-Amaliy mashg‘ulot:

RAQAMLI SVETOPROBA USKUNALARI.

DENSITOMETRIK VA SPEKTROFOTOMETRIK NAZORAT

Prepressda svetoproba jarayonlari. Lazerli va purkashli printerlarning tuzilishi va ishslash prinsipi. Spektrofotometrlarning qo‘llanilishi, tuzilishi va olingan natijalar asosida sifat nazoratini tashkil qilish.

Ishning maqsadi: Raqamli svetoproba uskunalari – printerlarning turlari, tuzilishi va ishslash prinsiplari bilan tanishish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Kartridjni printerga o’rnatish va printerni ishga tayyorlash.
2. Printerda nussxasi olinishi kerak bo‘lgan axborotni tayyorlash.
3. Printer «darcha»sini ekranga chaqirish: Menyu qatorida Fayl → Pechat yoki Ctrl+P

4. Printerda nusxa olish rejimlarini tanlash: nusxalar soni, nusxalanadigan betlar, varaqdagi betlar soni, imkoniyat va b.

5. Axborotni printerga jo'natish, ya'ni bosishga buyruq berish.

Ishni bajarishni boshlashdan oldin o'qituvchi talabalarni printerlar haqida umumiy ma'lumotlar hamda bevosita laboratoriya ishida foydalanilayotgan printering tuzilishi bilan tanishtiradi. Talabalar printer darchasi elementlari bilan tanishib chiqadilar. Shundan so'ng talabalar printerda nusxa olish jarayonini amalga oshiradilar.

Amaliy mashg'ulotiga kerak bo'ladigan jihozlar

Lazerli yoki purkashli printer, qog'oz va toner.

Umumiy ma'lumotlar

Nashrlarni bosmaga tayyorlashning turli bosqichlarida sahifalashni, nashrning matn va rasmlarini tekshirish uchun elektrofotografik yoki oqimli printerlardan foydalaniladi. Bu printerlar nazorat nusxalarini olish uchun xizmat qiladi.

Elektrofotografik printerlar nashr sahifalari nusxalarini oddiy qog'ozda bosma ko'rinishiga yaqin ko'rinishda olish imkonini beradi. Bunday printerlarda olingan nusxalarda matn, rasm va boshqa elementlar yuqori kontrastlikka ega bo'ladi.

Bugungi kunda elektrofotografik printerlarni lazerli va yorug'lik diodili turlarga ajratish mumkin. O'z navbatida ularning ikkisi oq-qora va rangli bo'lishi mumkin.


Lazerli printerlar tuzilishi va optik-mexanik tizimlari boyicha fotonabor avtomatlariga o'xshash. Lazerli printerlar elektrofotografiya jarayonlariga asoslanadi.

Yorug'lik diodili printerlarda, lazerli printerlardan farqli ravishda, yorug'likka sezgir yarimo'tkazgichli tasvir tashuvchisini eksponirlash uchun lazer emas, balki yorug'lik diodlari to'plamidan foydalaniladi.

Elektrofotografik printerlarning asosiy ko'rsatkichlari: imkoniyat, tasvirning eng katta o'lchami, unumдорлик.

Elektrofotografiya - bu maxsus yuzada tasvir olish uslub va texnik vositalari yig'indisidir. Bu yuzalarning elektr xususiyatlari yuza qabul qilgan yorug'lik nurlanishi miqdoriga qarab o'zgaradi.

Quyidagi rasmda varaqli qog'ozda nusxa oluvchi printering ish sxemasi keltirilgan.




1-rasm. Lazerli printer sxemasi

Impulsli rejimda ishlovchi yarimo'tkazgichli lazer 3 nur hosil qiladi. Nur to'xtovsiz aylanib turuvchi ko'p qirrali metall deflektor 1 yordamida aylantiriladi. Obektiv 2 ga o'rnatilgan fokuslovchi va kompensator linzalar yorug'likni fokuslaydi. Nur ko'zgu 4 orqali qaytib, elektrofotografik silindr 6 yuzasiga yo'naltiriladi va u lazer nurlanishiga sezgir elektrofotografik qatlamda yashirin elektrostatik tasvir hosil qiladi. Yashirin tasvirni ochiltirish bir komponentli ochiltirgichda maxsus qurilma 15 da amalga oshiriladi.

Ochiltirilgandan so'ng zaryadlangan tasvir ko'chirish elektrizatori 10 da hosil qilingan elektrostatik maydon orqali qog'ozga ko'chiriladi. Tasvir issiqlik yordamida qurilma 11 da mustahkamlangandan so'ng qog'oz varag'i valiklar 12 yordamida qabul stoli 13 ga chiqariladi. Ko'pchilik printerlarda friksion o'zi uzatgich 14 dan beriladigan varaqli qog'oz ishlatiladi.

Almashtiriluvchi kasseta (kartridj) elektrofotografik silindr 6 va ochiltirish qurilmasi 15 dan tashqari silindrni ochiltiruvchi kukun qoldiqlaridan tozalashga xizmat qiladigan raket pichog'i 7 ga ega qurilma 9 hamda silindrni zaryadlash elektrizatori 5 ga ham ega.

Almashtiriluvchi kartridjlar (7-rasm) ni qo'llash printerdan foydalanishni qulaylashtiradi. Chunki zaryadlash, ochiltirish va tozalash bo'limlari bitta blokka birlashgan. Ish resursi yoki sarflanuvchi materiallar tugagandan keyin kartridj chiqarib olinadi va yangisi bilan almashtiriladi. Foydalanilgan kartridj qayta tiklanishi va ochiltiruvchi kukun bilan to'ldirilishi mumkin.




2-rasm. Kartridj sxemasi:

1-kartridj korpusi; 2-elektrofotografik silindr; 3-zaryadlash bo’limi;
4-eksponirlash uchun oyna; 5-lazer nuri; 6-ochiltirish bo’limi; 7-ko’chirish
elektrizatori; 8-qog’oz varag’i; 9-tozalash bo’limi

Oqimli bosma – siyoh tomchilari bilan hosil qilinadigan tasvir olish usulidir. Bunda siyoh purkagichdan otilib chiqadi hamda purkagich va yuza orasidagi masofani bosib o’tib tasvir hosil qiladi.

Oqimli bosma tasvir hosil qilish usuli boyicha uzlucksiz va impulsli turlarga bo’linadi. Impulsli oqimli bosma o’z navbatida pufakli, pezolektrik va qattiq siyohli turlarga bo’linadi.

Uzlucksiz bosma turidagi oqimli printerlarda nusxalovchi boshcha qog’oz tomonga siyoh tomchilarini purkaydi. Nusxalovchi boshchaga keladigan siyoh oqimi purka-gichning tebranishi ta’siri ostida tomchilarga ajraladi. Tebranish hosil qilishga pezolek-trik generator yordam beradi. O’zgaruvchan elektr kuchlanish ta’siri ostida pezolektrik o’z hajmini o’zgartiradi va boshchadan tomchini purkaydi. Siyoh nusxalovchi boshchaga nasos yordamida doimiy ravishda rezervuardan kelib turadi. Ma’lum qovushqoqlikka ega siyoh olish uchun bu rezervuar eritma rezervuari bilan ulangan.



3-rasm. Oqimli printerning tuzilish variantlari

1-axborot tashuvchisi (qog’oz); 2-nusxalovchi boshcha; 3-qayishqoq kabel;
4-yo’naltiruvchi

Uchib chiqayotgan tomchilar elektr yordamida elektr zaryadiga ega bo'ladi. Shundan so'ng ular chekintiruvchi tizimdan uchib o'tadi, u esa yuqori kuchlanishli elektr maydon hosil qiladi. Tomchilar zaryadga ega bo'lganligi tufayli elektr maydon ta'siri ostida o'z yo'naliшини o'zgartiradi. Tasvir generatori tasvirlarning uchish yo'naliшини boshqaradi. Tomchilar yoki qog'ozning kerakli joyiga tushadi yoki tutgich orqali qaytadan foydalanish uchun rezervuarga qaytariladi.

Nusxalovchi boshcha (8-rasm) axborot tashuvchisi (qog'oz) yuzasi boylab harakatlanadi va doimiy ravishda tasvir hosil qiladi.

Ish natijalarinining tahlili; xulosani shakllantirish

1. Ish bajarish tartibi.
2. Printering yashirin tasvir hosil qilish tizimini tushuntiring.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish uslubiyati.

Nazorat savollari

1. Printerlarning qanday turlari va markalarini bilasiz?
2. Svetoproba turlari va mohiyati nimadan iborat?
3. Lazerli printerlarning tuzilishi qanday?
4. Oqimli printerlarning tuzilishi qanday?

6-Amaliy mashg'ulot: SMART-QADOQLAR

Yumshoq qadoqlarning loyihalanishi. Karton qadoqlarning tuzilishi va loyihalanishi. Zamonaviy qadoqlash materiallari. Smart qadoqlar sohasidagi zamonaviy trendlar.

Ish maqsadi: Qadoq va tara ishlab chiqarish uchun turli hil polimer materiallarni texnik xarakteristikasini o'rGANISH.

Nazariy qism

Polimer qadoqlarni iste'moli tez fursatlarda o'sib bormoqda. Buni quyidagi **afzalliklarni** asos qilish mumkin:

- 1.yuqori mustahkamlik va kichik o'g'irlik;
- 2.kimyoviy inertlik;
- 3.past mo'rtlik;
- 4.bo'yash osonligi;
- 5.yuqori texnologikligi;
- 6.o'zaro almashinuvchanlik;

Ammo bunday qadoqlarda bir nechta **kamchiliklari** ham bor:

- 1.kislород, aggressiv muhit va quyosh nuri ta'sirida eskirish;
- 2.qadoqdagagi mahsulotda begona hidlar;

3.utilizatsiya jarayonida polimerlarni turlarga ajratish murakkabligi;

4.organik bog'lamlarning mahsulotga migratsiyasi(PVX,Polistirol va bshq.).

Funksional mo'ljallanishi bo'yicha polimer taralar iste'mol, ishlab chiqarish va transport turlariga bo'linadi. Iste'mol taralari sanoatda, savdo tarmoqlarida va qishloq ho'jaligida keng tarqalgan.

Iste'mol taralar mahsulotni saqlash, uning buzilishi, to'kilishi, sochilishi, qurishi va boshqa yo'qotishlarni oldini olish uchun mo'ljallangan. Shakl, taraning konstruksiyasi va sig'uvchanligi mahsulotning hususiyatlari va konfiguratsiyasiga, polimer materiallar ishlab chiqarilishi va qo'llanishiga qarab aniqlanadi. Iste'mol polimer taralar qattiq va yumshoq bo'lishi kerak. Uni ishlab chiqarishning asosiy turlari- ekstruziya, ishirish bilan ekstruziya, bosim ostida quyish, termo- va vakuum-shakllantirish va presslash.

Ishlab-chiqarish taralari sexlar va zavodlararo jarayonlar uchun mo'ljallangan qadoq sifatida tarqalgan: yashiklar, poddonlar, tayyor mahsulotni transportirovkasi uchun lotoklar.

Transport taralari- qattiq va yumshoq turlarga bo'linadi.

Ishlab -chiqarish va transport taralarini ba'zan taqsimlovchi taralar deb ham ataladi, ular ishlab chiqaruvchilardan istemolchilargacha borish jarayonlarida mahsulotning tarnsportirovkasi uchun mo'ljallangan.

Plastmassalar qadoqlash uchun mo'ljallangan birinchi materiallardan biri hisoblanadi.

Plastmassa- polimer va uning aralashmalaridan tashkil topgan material.

Polimer-ko'p marotaba takrorlanuvchi atom gruppalaridan tashkil topgan makromalekulali yuqorimalekulayar birikmalardan iborat.

Sopolimer- gomopolimer bo'lib, boshqa guruh va monomerlarning kiritilishidan iborat.

Monomer-quyimalekulyar modda bo'lib, polimerlarning asosi hisoblanadi.

Barcha polimerlar xona xaroratida qattiq holda bo'ladi, qizdirish yo'li bilan eriydi. Ularga polistirol, polivinilxlorid, polivinil spirt, polivinilatsetat kiradi.

Qadoq va taralarning, polimer materiallarning ko'plab turlari ularni standartlashtirish katta kompleks muammolarni keltirib chiqaradi. Transport qadoq va taralariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish bir nechta bosqichlardan iborat:

-asos polimer tanlovi;

-kompozitsiya tarkibini optimallashtirish;

-tara ishlab chiqarish usulini aniqlash va qayta ishslash tartibini optimalashtirish;

-sifatni baxolash va tarning xizmat muddati;

Mustahkam va yengil taralar ishlab chiqishda polimerlarning yolg'iz holda kam hollarda qo'llaniladi. Bu maqsad uchun kompozitsion ko'rinishdagi polimer materiallardan foydalananiladi. Kompozitsiya asos material tanlovidan boshlanadi. Polimer tara va qadoqlar ishlab chiqarish uchun bir necha turdagi polimerlar mavjud.

Sun'iy	Sintetik
Sellofan (SL)	Polietilen
Sellyuloza efirlari	Polipropilen(PP)
	Polivinilxlorid(PVX)
	Polietilenteraftalat(PETF)
	Polistirol(PS)
	Poliamid(PA)
	Poliuretan(PU)
	Polikarbonat(PK)

Qadoqni ishlab chiqarishning texnologik metodlari:

- 1.quyma shakllantirish;
- 2.ekstruzion-ishirma shakl;
- 3.pnevmo- va vakuumlash;
- 4.mexnik termo shakllantirish;
- 5.ekstruzion texnologiya;

Polimer plyonkalar- xozirgi kunda eng ko'p tarqalgan qadoqlash materiali hisoblanib, ular yahlit polimer qatlamlardan iborat bo'lib, qalinligi 0.5mm dan kam emas.

Qatlamlar soni bo'yicha plyonkalar:

- bir qavatli;
- ko'p qavatli;

Materiallar turi bo'yicha:

- bir hil(polimerli);
- kombinirlangan(qog'oz, folga, mato va bshq.).

Bir qavatli, ko'p qavatli va kombinirlangan plyonkalar polimer va uskunalar tanloviga qarab quyidagi usullarda tayyorlanadi:

- yassi plyonkalar ekstruziyasi;
- yengli ishirma plyonkalar ekstruziyasi;
- kalandrlash;
- eritmalardan plyonkani quyish;

- laminatsiyalash;
- kashirlash;
- metallashtirish;
- birgalikdagi ekstruziya;

Yassi plyonkalar ekstruziyasida yassi boshchali moslamadan eritmani vertikal holda quyilib, so'ng sovitish moslamasiga o'tadi. Sayqallangan metal barabanlarda sovitish juda qulay hisoblanadi. Bu texnologiya bilan bir va ikki qavatli plyonkalar ishlab chiqarish mumkin.

Yengli ishirma plyonkalar ekstruziyasida plyonka uzuk ko'rinishidagi boshchadan chiqariladi va kerakli o'lchamga kelgunga qadar bosim ostida havo bilan ishiriladi. Odatda yengli plyonka pastga yoki yuqoriga qarab tortiladi, chunki ekstruder silindri 90° holatda joylashtiriladi. Undan keyin plyonka bir biriga yopishmaydigan haroratgacha sovitiladi va rulonlarga o'raladi. Ba'zan plyonka kesiladi so'ng o'raladi. Yengli plyonka kengligi 15-20 sm dan 3 metrgacha bo'lishi mumkin. ;

Kalandrlash yo'li bilan odatda polivinilxloridli va tekislanadigan plyonka olinadi. Eritmalardan plyonkani quyish usuli orqali faqatgina boshqa yo'llar bilan plyonkalarni ishlab chiqib bo'lmasagina foydalaniladi. Bu usul bir nechta bosqichdan iborat: gomogen eritmalarni tayyorlash va filtrlash, hamda raket' yoki boshqa moslama orqali surtish. Eritma sayqallangan metal tarnsportyor-lentaga yoyiladi, uchinchi bosqichda – quritiladi. Quritishda erituvchilar eritmadan butunlay ajralib chiqadi, plyonka esa rulonlarga o'raladi. Bunday plyonkalarga sellofan, selyuloza efirlari va bshq. kiradi.

Qog'oz, fol'ga, karton, mato, plyonka va boshqa rulonli materiallardan ko'p qavatli kombinirlangan plyonkalar tayyorlash uchun kashirlash va laminatsiyalash usullaridan keng foydalaniladi.

Laminatsiyalash – bu plyonkali materialarni valikli moslamalarda birlashtirish jarayoni bo'lib, bunda birinchi plyonkaga eritilgan polimer surtiladi va ikkinchi qavat plyonka materiali valiklar yordamida yopishtiriladi yoki to'rt, besh valikli kalandrdan o'tkaziladi.

Ekstruzerli laminatsiya esa plyonkalarni eritmalar bilan birlashtirishga aytildi. Bu yo'l bilan ikki yoki uch qavatli plyonka olish mumkin. Buning uchun ikki ekstruder yoki maxsus so'rib oluvchi boshchali moslamalar kerak bo'ladi.

Kashirlash - bu kashirlash moslamalarida yelimni qo'llash bo'lib, u ikki hil ko'rinishda bo'ladi: ho'l quruq .

Birinchi holatda yelim qatlami surilishi bilan plyonkalar birlashtiriladi, bunda yelimning qurishini kutish kerak emas. Materiallardan biri gaz o'tkazuvchan va g'ovak bo'lsa ho'l usuldagagi kashirlash jarayoni qo'llaniladi, bunda eritmalarining bir

qismi diffuziya va o'tkazuvchanlik yo'li bilan oson bug'lanadi. Yelim sifatida suvli eritmalar, latekslar va emulsiyalar qo'llaniladi.

Quruq usul esa surtilgan yelimli qatlam oldin laminatorlarda quritiladi, keyin yuzalar birlashtiriladi. Yelim sifatida kauchuk eritmalarini va organik eritmalardagi polimer qatron qo'llaniladi.

Kashirlashda eritmali yelim yoki termoplast surtuvchi valiklar bilan asos materialga surtiladi va pylonkalar valiklar bilan bosim berilib yopishtiriladi.

Metallashtirish- fol'gali pylonkalarning zamonaviy turidir. Alyumin qatlam ba'zan bir nechta nuqsonli- mikrodarslar va teshikli bo'lib, bu kombinirlangan pylonkalarning to'siq hususiyatini yomonlaydi. Metal pylonkalar alyuminni yoki uning eritmalarini issiqlik ta'sirida polimer pylonka yuzasiga vakuum kameralarda sepish yo'li bilan olinadi.

Ikki tomonlama yo'naltirilgan pylonkalar yuzasiga metal qatlam berib tayyorlangan pylonklar yuqori sifat ko'rsatkichlariga (mustahkamlik, kam kirishuvchan) ega bo'ladi. Metallashtirish uchun alyumin, mis, nikel', va xrom kabi rangli metallardan foydalaniladi. Metallashtirish vcakuumlarda amalga oshiriladi. Yuqori harorat ta'sirida (1500°C) alyumin sim parlanadi, vakuum zonada pylonka yoki qog'oz yuzasiga tushadi. PP,PET,PA,sellofan va PE kabi pylonklar matallashtiriladi.

Metallashtirish materialning tosiq hususiyatini 3-5 marotaba yahshilaydi: bug', gaz, hid o'tkazuvchanlik kamayadi. Pylonka yorqin ko'rinishga ega bo'lib, yorug'likni ham o'tkazmaydi. Metal ham tejaladi.

Odatda BOPP pylonkalar metallashtiriladi. Eng qulay qadoq bu 3 qavatdan iborat bo'lib, ular polimer, metal va turli termoplastli polimerlar.

Birgalikdagi ekstruziya- ikki yoki uch ekstruderdan turli tarkibli polimerlar eritmalarini bitta shakllantiruvchi boshchaga yo'naltirilish metodi bo'lib, qo'llaniladigan texnologiyaga qarab polimerlar boshchaga kirishda yoki undan chiqishda birlashtiriladi. Bu usulning boshqa metodlardan afzalligi ko'p qavatlari material bevosita polimer granulalardan shakllantiriladi.

Bir yoki ikki tomonga *yo'naltirilgan pylonkalar* ham mavjud. Pylonkalarni yo'naltirishda fizik-mexanik hossalar yahshilanadi, mustahkamlik oshadi, teshilishga chidamlilik va boshqa shu kabi hossalar yahshilanadi. Jarayon tezligi va harorat polimerlar tabiatiga bog'liq. Yo'naltirilgan pylonka deyarli cho'zilmaydi.

Temik kirishuvchi pylonkalar- bunday pylonkalar yuqori va past zinchlikli polietilen, vinilatsetatli etilen sopolimeri va boshqa pylonkalardan tayyorlanadi. Mahsulotni qadoqlash uchun bu pylonkalar kuch ta'sirida cho'ziladi va qadoqlanadi. Termik kirishuvchi pylonkalarga qadoqlash jarayonlari qo'lda yoki avtomatik moslamalarda amalga oshiriladi.

Streych-plyonkalar tarkibida elastomer komponentli polimerlardan tayyorlanadi. Elastomer komponentlarga kauchukli etilen sopolimeri, plastifisirlangan PVX , past zichlikli chiziqli polietilen va bshqalar kiradi. Bundan tashqari mahsus hususiyatli plyonkalar- perforatsiyalangan, suvda eruvchan, tabiiy holatda yoki suvni haroratini oshirganda eruvchi, havoli-g'ovak va boshqa hususiyatli mavjud. Bu hususiyatli plyonkalar mahsulotlarni turli hossalariga qarab qadoqlashda qo'llaniladi.

Kombinirlangan materiallardan tayyorlangan qadoqlar yarim qattiq va yumshoq qadoqlar turiga kiradi. Kombinirlangan materiallar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.Faqat polimerlardan tarkib topgan ko'p qavatli plyonkalar;
- 2.Metallashgan yoki alyumin fol'gali ko'p qavatli plyonkalar;
- 3.Qog'oz va kartonli plyonkalar.

Polimer plyonkalarni qo'llash natijasida qadoqning himoya hossalari yahshilanadi va reklama vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi. Polimer plyonkalarga rangli tasvir tushirib, estetik bezirim qadoqlar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Plyonka uchun qoplamlar: akril, PVDX, PVS (polivinilli spirt), NTS(past haroratli payvandlash uchun materiallar).

Akril qoplam plyonkani katta diapazonli haroratda payvadlash imkonini beradi, choklar ham juda mustahkam bo'ladi. Qoplam plyonkaning yorug'likdan himoya hususiyati oshadi, hidnisaqlaydi, plyonkaga suvli emul'siya ko'rinishida bir yoki ikki tomondan suriladi. Mahsulotlar: sneklar, pechen'ye, shokolad.

PVDX – qoplam mahsulot bilan kontakt qiluvchi ichki tomonda berilib, ustki tomonga akril qoplam beriladi. Payvandlashni osonlashtiradi, choklar esa mustahkam bo'ladi. Qadoqning to'siq hususiyatlari yahshilamadi. Mahsulotlar: pechen'ye, konfet, sneklar, tamaki mahsulotlari.

PVS (polivinilli spirt) – metallashtirishda birga qo'llanilib, gaz, suv o'tkazuvchanlikni kamaytiradi. Mahsulotlar: tez tayyorlanadigan mahsulotlar, chipslar, kofe, choy, qovurilgan yong'oq, pechen'ye.

Ish tartibi

1-Topshiriq. Polimer materialarning texnik xarakteristikasini o'rganish. Materiallar hossalari, kamchilik va afzalliklari, tar ava qadoq ishlab chiqarishdagi texnologik metodlar, qo'llanish soxalari(tara va qadoqlash mahsulotiga namuna keltirilsin). Jadval 5.1 to'ldirilsin.

Jadval 1**Polimer materiallar harakteristikasi**

Polimer material	hususiyati	afzallik	kamchilik	Ishlab chiqarish texnologiyasi	Qo'llash soxasi
PE					
PP					
PS					
PA					
PVX					
PETF					

Jadval 2**Polimer asosli kombinirlangan material xarakteristikasi**

Kombinirlangan material	hususiyati	afzallik	kamchilik	Tayyorlash usullari	Qo'llash soxasi

2-topshiriq. Polimer pylonka asosli kombinirlangan materiallarni texnik xarakteristikasini o'rganish. Materiallar hususiyatlarini ifodalash, kamchilik va afzalliklarini sanab o'tish, qadoq ishlab chiqarishning texnologik metodlarini va kombinirlangan materiaillardan tayyorlanadigan tara va qadoqlar turlarini o'rganish.Jadval 5.2. toldirilsin.

Nazorat uchun savollar

- 1.Ishlab chiqarish, iste'mol va transport taralarni tavsiflab berin.
- 2.Polimer taralarni afzallikkabi va kamchiliklari.
- 3.Polietilen va uning qo'llash soxasini haqida ma'lumot bering.
- 4.Polistirol va uning qo'llash soxasi haqida ma'lumot bering.
- 5.Polivinilxlorid va uning qo'llash soxasi haqida ma'lumot bering.

KO'CHMA MASHG'ULOT

Matbaa-qadoqlash va noshirlik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarining texnologiyalarini o'rganish sohaning yetakchi korxonalarini va laboratoriylarida olib boriladi.

GLOSSARIY

	A	
Adad	umumiy nusxa soni	Тираж/ Circulation
Albom	rangdor tasvirli kitob nashri, odatda tushuntirish matni ham bo‘ladi	Альбом/ Album
Aniq tomonlar	bosish mashinalarining yon va old tirkaklari bo‘yicha harakatda bo‘lgan qog’ozning o‘zaro ikki tik tomonliri	Верные стороны/ Faithfull sides
Applikatsiya	muqova yuzasiga boshqa rangdagi mahsulotdan tayyorlangan va qirqib olingan tasvirni yopishtirish	Аппликация/ Applique work
Ariqcha	karton, qog’oz yoki muqovadagi to‘g’ri chiziq ko‘rinishida bo‘lgan chuqurcha	Биг/Joint forming
Aslnusxa		Оригинал/ Original
Atlas	umumiy dastur bo‘yicha yig’ilgan va ko‘p xaritalardai tashkil topgan xaritali nashr	Атлас/ Atlas
	B	
Bezash (kitobni) pardozlash	kitoblarning tashqi ko‘rinishini yaxshilash	Отделка (книги)/ Decorating (books)
Bezak	nashr sahifalarining bezalish elementi	Орнамент/ Ornament
Belgi varag’i	kitobni biriichi varag’i bo‘lib, unda nashr muallifi, nomi, nashriyot hamda chop etilgan yil ko‘rsatiladi	Титульный лист/ Title page
Berk koreshok	muqova koreshogining taxlam koreshogiga yelimlangan turi	Глухой корешок/ Deaf rootlet
Bet	matbaa mahsulotlaridagi qog’oz varaqlarining bir tomoni	Страница/Page
Bichish	qog’oz, karton, muqova va shunga o‘xshash mahsulotlarni kerakli o‘lchamlarga qirqish	Раскрой/Pattern cutting
Bichim, o‘lcham	nashr o‘lchami	Формат/ Format
Bosma yuqori	an’anaviy bosma usuli	Высокая печать/Relief printing

Bosma naqsh, qisish	muqovaga, kartonga, qog'ozga yoki boshqa mahsulotlarga yuqori haroratda va bosimda tamg'a yordamida tasvir tushirish	Тиснение/ Embossing
Bosma taboq	nashr hajmining o'lchov birligi	Печатный лист/Print sheet
Bosma taboq ulushi	nashrdagi asosiy daftarlarga nisbatan kamroq betga ega bo'lgan bosma taboq qismi	Дробная часть печатного листа/ Fractional part printed sheet
Bosma chuqur	an'anaviy bosma usuli	Глубокая печать/Gravure print
Botiq qisish	muqova tavaqasiga, kartonga, qog'ozga yoki boshqa mahsulotlarga rangsiz chuqur tekis tasvir tushirish	Блинтовое тиснение/Blind embossing
Broshyuralash- muqovalash (postpress) jarayonlari	jild yoki muqovadagi kitob, risola va oynomalarni bosma taboqlarga ishlov berish yo'li bilan olinadigan jarayonlar yig'indisi	Брошюровочно- переплётные процессы/Post press processes
Buklam	buklashda hosil bo'lgan chiziq	Фальц/Fold
Bukish pichog'i	buklash uskunasi elementi	Фальцнож/Folding knife
Buklet	turli yo'l bilan ikki yoki undan ko'p buklangan, bir bosma taboqdan tashkil topgan varaqli nashr	Буклет/ Booklet
Burama prujina	mahsulot taxlamini mahkamlash vositasi	Спираль/ Spiral
Bo'rtma qisish	muqovaga, kartonga, qog'ozga yoki boshqa mahsulotga mayda shakllarni tushirish	Конгревное тиснение/ Relief embossing
Byulleten	davlat va ilmiy muassasalar tomonidan vaqtiga-vaqtiga bilan chop etiladigan nashr	Бюллетень/ Bulletin
	V	
Varaq bichimi	santimetr yoki millimetrlarda ifodalangan qog'oz o'lchami	Формат листа/ Format of the sheet
Varaq yig'uvchi mashina	nashr taxlamini yig'ish uskunasi	Листоподборочная машина/Selection machine
	G	
Gilza	muqova va kitob taxlaming koreshoklari orasiga yelimlab qo'yiladigan qog'oz yoki mato parchasi,	Гильза/ Cartridge case

	bu kitob taxlamini muqovaga o‘rnatishning bir vositasi	
	D	
Devonxona kitobi		Канцелярская книга/ Office book
Dermantin	dag’al gazlama, yuzasiga charmga o‘xshash rel’efli tasvir bilan nitrotsellyuloza qoplangan mato	Дермантин/ Dermantin
DAST	davlat standarti	ГОСТ-государственный стандарт/State standard
	Ye	
Yelim pardasi qatlami		Клеевая плёнка/Glue slick
Yelimlanish darajasi		Степень проклейки/Degree of gluing
Yelimni ushlashi		Схватывание клея/Setting of the glue
	Yo	
Yon tekislagichlar	uskunalarda varaqlarni yondan tekislash qurilmasi	Боковые сталкиватели/Lateral jogging unit
Yopishma	kitob varag’iga, paspartuga, muqova yoki jildga yelimlangan, o‘lchami nashr bichimidan kichik bo‘lgan rangli tasvir	Наклейка/Sticker
Yopishma ichki	1-daftarning ichiga yelimlanadigan varaq ulushi yoki rangli tasvir, 2-daftar ichidagi betlarga kitob qismlarini yelimlab, murakkab daftarlarni yig’ish	Вклейка/Inset
Yopishma tashqi	1-daftarni tashqi betiga yelimlanadigai varaq ulushi yoki rangli tasvir, 2-daftarni tashqi betiga kitob qismlarini yelimlab, murakkab daftarlarni yig’ish	Приклейка/Sticker
	J	
Jajji nashr	o‘lchami 84x108/64 dan 60x84/64 gacha bo‘lgan nashr	Миниатюрное издание/Miniature publishing
Jild	nashr taxlamini forzatssiz berkitilgan tashqi qoplama	Обложка/Cover

jiyak	bir tomoni yo‘g’onroq, eni 13-15mm li ip gazlama, shoyi yoki sintetik ipdan to‘qilgan mato. Jiyak qirqilgan kitob taxlamini koreshogining ikki uchiga yelimlanadi va kitobni qo‘sishimcha mahkamlash hamda bezash maqsadida ishlatiladi	Каптал/Chaptal
	I	
Ilgak	ipda tikish uskunasida ipni ignadan ilmoqqa olib berish moslamasi	Шибер/Shiber
Ilmoq		Крючок/Hook
Ish maromi		Ритм работы/Rhythm of the work
Yig’uvchi-tikuvchi qirquvchi agregat (YTQA)		Вкладочно-швейно-резельный агрегат (ВШРА)/Collecting-sewing-cutting machine
	K	
Katalog	bir turdag'i narsalarni ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati	Каталог/Catalog
Kertik	TYEMda taxlam koreshogining ma'lum qismini frezerlab kemtiklab hosil qilingan joylar	Шлиц, высечка/Spline, Die cutting
Kiydirma	1-daftarni o‘rtasiga qo‘yiladigan varaq ulushi yoki rangli tasvir, 2-varaq ulushlarini yoki rangli tasvirlarni daftarni o‘rtasiga qo‘yib murakkab daftarlarni yig’ish	Вкладка/Inlay
Kitob	hajmi 48 betdan ko‘p bo‘lgan, muddati belgilagmagan matnli nashr. Arabcha “kitobat” so‘zidan olingan bo‘lib, "yozish", "ko‘chirib yozish" degan ma’noni anglatadi	Книга/ Book
Kitob taxlami	bo‘lajak nashrni hamma qismlarini va betlarini tashkil etuvchi hamda daftar koreshoklari yoki varaqlari mahkamlangan qog’oz yoki daftarlari taxlami	Книжный блок/Book blick
Kitob taxlaming koreshogi	ma'lum tartibda yig’ilgai daftarlari yoki varaqlarning mahkamlanadigan tomoni	Корешок книжного блока/Rootlet of the book block
Kolenkor	kraxmal moddalarli, mineral to‘ldirgichlar va bo‘yovchi moddalar shimdirlilgan rangli yupqa gazlama matosi	Коленкор/Calico

Ko‘chirma qatlam	nusxa ko‘chirish qatlami	Копировальный слой/Copying layer
	L	
Lederin	teskari tomoniga kraxmal qatlami surtilgan, o‘ngi nitrotsellyuloza, plastifikator, to‘ldirgichdan iborat egiluvchan qatlami bo‘yalgan ipli gazlama matosi	Ледерин/Letherette
	M	
Ma’lumotnoma nashri		Справочное издание/Reference publishing
Matbaa	Bosma printmedia sohasi	Полиграфия/Polygrphy
Matritsa	yuqori qattiqlikka va mustahkamlikka ega bo‘lgan, bo‘rtma qisishda ishlatiladigan tamg’aning bo‘rtma nusxasi va pastki plitada asosiy tamg’aning qarshisiga o‘rnatalidi	Матрица/matrix
Mindirma	1-ichiga daftar joylashtiriladigan ulushli varaq qismi, 2-bir buklamli daftarni asosiy daftar ustiga tashlab murakkab daftarni yig’ish	Накидка/Mantle
Mitti nashr	o‘lchami 84x108/128 dan 60x84/256 gacha bo‘lgan nashr	Малютка/Moppet
Murakkab daftar	oddiy daftarga qo‘srimcha qismlar biriktirilgan daftar (forzats, varaq ulushi, matndan ajratilib alohida bosilgan rangli tasvir qismi)	Сложная тетрадь/Complex copybook
Muqova tavaqasi	muqova uchun mo‘ljallangan karton bo‘lagi	Сторонка переплетной крышки/Cover board
	N	
Nashr bichimi, o‘lchami	kitob, risola yoki oynoma mahsulotlarining uch tomonlama qirqilgandan keynigi mm dagi o‘lchami. Bunda birinchi raqam taxlam enini, ikkinchi raqam esa taxlam balandligini ko‘rsatadi. Nashr bichimi santimetrlarda, bosma varaq bichimida va varaq ulushida belgilanadi, masalan 60x90/16	Формат издания/Format of the publishing
Nashr hajmi	nashrdagi bosma taboqlar yoki nashriyot hisobli taboqlar yoki muallif varag’i, yoki betlar soni	Объем издания/Volume of the publishing
Norma	qog’ozning birinchi sahifasiga bosiladigan nashr nomi, muallifi yoki buyurtma tartib soni	Норма/Rate

	O	
Oynoma	har yili qat'iy belgilangan vaqtida, bir xil ko'rinishda va mazmuni bo'yicha qaytarilmaydigan matnli nashr	Журнал/Magazine
Oynoma nashri	jild yoki muqovada belgilangan o'lchamda bosma mahsulot varaqlarining koreshogidan mahkamlangan nashr	Журнальное издание/Magazine publishing
Ohorlangan qog'oz	yuzasiga bo'r qatlami qoplangan qog'oz	Мелованная бумага/Coated paper
Oqlik		Белизна/Whiteness
	P	
Paspartu	Tasvir elimlanadigan zich qog'oz varog'i yoki yupqa karton	Паспарту/Pasportu
Plyur	Tasvirni buzilishdan saqlash uchun ishlataladigan yupqa shaffof qog'oz	Плюр/Plure
Presshpan	Yupqa (1,25-2,5 mm) silliq pishiq karton	Пресспан/Panel board
	R	
Rangdor tasvir, rangli rasm		Иллюстрация/Image
Rant	jild yoki muqova tavaqalarini taxlam qirqimlaridan chiqib turgan qismi	Кант/Corner
Rasstav	muqovaning karton tavaqasi hamda otstav oralig'idagi masofa	Расстав/Parting
Risola	hajmi to'rt betdan ko'p lekin 48 betdan kam bo'lgan matnli kitob nashri	Брошюра/Brochure
Ro'znama		Газета/Newspaper
	S	
Signatura	kitobdag'i bosma taboqlarning tartib soni, u har bir daftarning birinchi sahifasini pastki ichki burchagiga bosiladi hamda yulduzcha bilan, birinchi daftardan tashqari, har bir daftarning uchinchi sahifasida qaytariladi	Сигнатура/Signature
Sinchlash koreshokni	TYEMda koreshokni butunlay qirqib tashlab, varaqlarni qo'shimcha mustahkamlash bo'lib, bunda	Армирование корешка/Armoring the rootlet

	tabiiy yoki sintetik iplar koreshokda maxsus ochilgan ariqchalarga yelimlanadi	
Siqish-bog'lash pressi		Паковально-обжимной пресс/Pressing unit
Siqish kitobni	muqovani taxlamga mustahkam birlashishini va zichligini oshiruvchi jarayon	Прессование книг/Pressing of the books
	T	
Tayyorlama	yig'ma muqovalarni tayyorlashda ikki karton tavaqasini koreshok mahsuloti bilan yelimlangan qismi	Штуковка/ Contraption
Tarmoq standarti (TST)		Отраслевой стандарт (OCT)/Branch standard
Tashlamli yopish	Jildni taxlam koreshogiga hamda tashqi betlar hoshiyasiga yelimlash	Критьё вроспуск/Covering
Taqvim		Календарь/Calendar
Tekislash	taxlamdagi qog'oz varaqlarining, kartonning, matnning va shunga o'xshash mahsulotlarning chetki ikki o'zaro tik tomonlarini tekis yuzaga urib to'g'rilash	Сталкивание/Joggling
Texnologik shartlar (TSH)		Технические условия (ТУ)/Technical spesifications
Tikish ilib	kiydirilib yig'ilgan nashrlarni koreshok buklamidan tikib, sim oyoqchalari taxlam ichiga qayirilgan bo'ladi	Шитьё в накидку/Cape sewing
Tikish orasidan	ustma-ust yig'ilgan daftarlarni buklamdan sim bilan ustidan tikish, sim oyoqchalari taxlam koreshogi ustida, yelkasi esa ichida joylashgan bo'ladi	Шитьё вразъем/In jack sewing
Tikish ustma-ust	ustma-ust yig'ilgan nashrlarni koreshok chetidan joy tashlab simda yoki ipda koreshok hoshiyasidan tikish	Шитьё втачку/Stitch in sewing
Tikmay yelimlab mahkamlash (TYEM)	Koreshokka yelim surtib mahkamlash usuli	Клеевое бесшвейное скрепление (КБС)/Glue binding
Tob tashlash muqovani	Muqovaning qiyshayib ketishi	Коробление переплетной крышки/

To'n jild	jildni yoki muqovani ustidan o'raladigan qo'shimcha klapanli jild, odatda bezalishi asosiy muqova yoki jild bilan bir xil bo'ladi	Суперобложка/Jacket
Tikish bog'lama qatm		Узловязальный стежок/Knitting stitch
Tikish mokili qatm		Челночный стежок/Shuttle stitch
Tikish zanjirli qatm		Цепочечный стежок/Chained stitch
	U	
Uskuna silliqligidagi qog'oz		Бумага машинной гладкости/machine smoothness paper
	F	
Falchik	yig'ma forzatsning qog'ozli tomonlarini o'zaro birlashtiruvchi mahsulot parchasi	Фальчик/Joint
Forzats	bir bukilgan qog'oz varag'i yoki ikki varaq qog'ozni mato parchasi bilan yelimlab birlashtirilgan hamda taxlamni birinchi va oxirgi daftalarini koreshok hoshiyasiga yelim bilan mahkamlanadigan qalin qog'oz bo'lib, taxlamni muqova tavaqasi bilan birlashtirishga xizmat qiladi	Форзац/Endpaper
Forzats kiydirilib tikilgan, tikilgan forzats		Прошивной форзац/Sewing endpaper
Forzats ustidan tikilgan		Пришивной форзац/Sewed endpaper
Frontispis	kitobning chap tomonida belgi varag'idan oldin qo'yiladigan tasvir	Фронтиスピス/Frontispiece
	X	
Xat cho'p	kitob taxlamini koreshogining o'rtasiga mahkamlanadigan ensiz shoyi tasma, vazifasi kitob o'qilganda betni topishni osonlashtiradi, ba'zi hollarda bir kitobda ikkita xat cho'p bo'lishi ham mumkin	Ляссе, ленточка/Ribbon

Hoshiya		Поля/Fields
	Ch	
Chaspak		Колодка/Shoetree
Chiziqlash		Штриховка, биговка/Joint forming
	Sh	
Shartli bosma tabaq		Условный печатный лист/Conditional printed sheet
Shimish xossasi		Впитывающая способность/Absorbtion ability
Shleyf	daftarning old hoshiyasini ikkinchi yarmidan 8-12 mm chiqib turgan qismi	Шлейф/Plume
Shpatsiya	muqovadagi korton tavaqalarining ichki qirralarini orasidagi masofa	Шпация/Space
Shtabel	qog'oz, daftar, kitoblarni ma'lum tartibda joylangan katta taxlami	Штабель/Clamp
	O'	
O'zi uzatkich		Самонаклад/Feeder
O'ram	texnik mato tasmasi, doka, qog'oz yoki boshqa mahsulotlar o'ralgai g'altak	Бобина/Reel
O'ramni qirquvchi mashina		Бобинорезальная машина/Reel cutting machine
O'rash, taxlash		
O'rash daftarni, forzatsni		Упаковка/Packing
O'rash kitob taxlamini	qog'oz, mato yoki noto'qima mahsulotining parchasini forzatsdan va daftarning birinchi hamda oxirgi betlaridan chiqarib butun koreshok yuzasiga yelimlash	Окантовка/Stripping
	Q	

Qabariq chegara		Мениск/Meniscus
Qatm		
Qatm bog'lamali		Стежок/Stitch
Qatm zanjirli		Узловязальный стежок/Junction stitch
Qatm mokili		Челночный стежок/Shuttle stitch
Qatm sirtmoqli		Петельный стежок/Loop stitch
Qisish		Тиснение/Embossing
Qisish zarli	isitilgan tamg'a bilan zar yordamida muqovaga va boshqa mahsulotlarga qisish yo'li bilan tasvirni tushirish	Тиснение фольгой/Foil embossing
Qiyshiq-tik harakat		Наклонно-вертикальное движение/Slanting-vertical motion
Qirqish	qog'oz taxlamini ma'lum qismlarga bo'lish	Разрезка/Cutting
Qirqish qog'oz chetlarini	qog'oz qirralarini tekis va o'zaro tik bo'lishi uchun bajariladi	Подрезка/Pruning
Qisqich, xalqa		Обойма/Holder
Me'yoriy hujjatlar		Нормативные документы
Qolip		Форма, штамп/Stamp
Qopqoq		Клапан/Flapper
Qog'oz uskuna silliqligidagi		Бумага машинной гладкости/
Qo'l yozma, asl nusxa		Рукописный оригинал/Handwritten original
	Yu	
Yuklash		Загрузка>Loading

Yutilish		Сорбция/Sorbtion
	Ya	
Yaltiratilgan qog'oz		Глазуированная бумага/Glazing paper
Yaltiroq qog'oz		Глянцевая бумага/Glossy paper

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йў лимизни қат’ият билан давом эттириб, янги босқичга кў тарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бў лади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagı “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagı “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil v23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-soni Farmoni.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-soni Qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-soni Farmoni.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-soni Farmoni.
- 13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-soni Farmoni.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-soni Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Helmut Kippzan. Handbook of printmedia: Technologies and Production Methods. Germany, 2014.
2. Миронов Д.Ф. Компьютерная графика в дизайне. Учебное пособие – “Piter”.: 2014.
3. Yeshbayeva U.J. Bosish uskunaları: Darslik. T.: TTYSI bosmaxonasi. 2016 y. 240 b.
4. Хведчин Й.И. Послепечатное оборудование. - М.: «Книга» 2003. – 466 стр.
5. Djalilov A.A. Postpress uskunaları. Darslik. – T.: TTYSI, 2021. – 352 bet.
6. Г.Г.Трубникова. «Технология брошюровочно-переплетных процессов». Учебник. - М.: «Книга» 2012. - 392 с.
7. Abdunazarov M.M. “Bosma qolip tayyorlash texnologiyasi”. Darslik – T.: TTYSI. 2019 – 244 bet.
8. M.M.Abdunazarov, A.K.Bulanov, A.A.Djalilov “Raqamli bosma texnologiyasi”. Darslik – T.: TTYSI. 2019 – 298 bet.
9. Bulanov A.K. Imomov R.Q. Bosishgacha bo‘lgan jarayon texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: TTYSI, 2011 – 342 bet.

- 10.Самарин Ю.Н., Сапошников Н.П., Синяк М.А. Допечатное оборудование. Учебное пособие - М.: МГУП, 2000
- 11.Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.03.2020 yildagi PQ-4640-son.
- 12.Claudia McCue. Print production with Adobe Creative Cloud, AQSH, 2010.
- 13.A.K.Bulanov, M.M.Abdunazarov. Tezkor bosish jarayoni texnologiyasiy. O'quv qo'llanma – Т.: “TTYSI”. -2014. -152 bet.
- 14.Р.М.Уарова. Оперативная полиграфия. Учебное пособие - М.:МГУП,2008 – 420 стр.
- 15.Bulanov A. K. Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi asoslari. Darslik. -2018. -332 bet.

IV. Elektron ta'lif resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. www.nissa.ru.

